

## O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Endi dars o'tishi uchun o'qituvchiga litsenziya beriladi, deb eshitdim. Bu litsenziyani olish uchun yana test topshirar ekanmiz. Nimma, o'qituvchining test ishlab, variant yodlashdan boshqa ishi yo'qmi? Attestatsiyaning o'zi o'qituvchining dars berishga yaroqli ekanligini aniqlashga xizmat qilmaydimi?

6-bet

## Harbiy tavsiyanoma ahamiyatini yo'qotdi(mi?)

Imtiyozga ega bo'lganlar, avvalo, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga topshirgandagina to'plagan balining 50 foizi miqdorida qo'shimcha balni qo'lga kiritadi.



7-bet

## Qaysi ta'lim yo'nalishini tanladingiz?

Gazetamizga abituriyentlar respublika oliy ta'lim muassasalarida 2019-2020-o'quv yilida tashkil etilayotgan yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot berishimizni so'rab murojaat qilgan.


13-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 10-iyul, chorshanba № 53 (9222)

Xalq ziyolilari gazetasi



Osmonni bola va afsungar kabi tinglardim...

8-9-betlar



## Kitobga ehtirom

Qarshi davlat universiteti ro'parasida kitobga ehtirom ramzi sifatida monument o'rnatildi.

Mazkur monument qaysidir ma'noda mamlakatimiz bo'ylab yoshlarni kitobxonlikka jalb etish borasida olib borilayotgan keng ko'lami ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

12 dona eng nodir asarlar to'plami aks etgan ushbu monumentda o'ziga xos ramziy ma'no mujassam. Bu yerda buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Oripov, Sharof Rashidov

kabi alloma va mutafakkirlar, el ardoqlagan taniqli shoir va yozuvchilar nomlari zikr etilganki, kishida faxr uyg'otadi. Bundan tashqari, "javonga" Balzak, Shekspir, Pushkin kabi jahon adabiyotining yetakchi namoyandalari ham kiritilgan.

Bu monument nafaqat kitobxonlikka da'vat qiladi, balki har daqiqada o'zbek adabiyotining boqiy ekanligini eslatib turadi.

Abituriyent — 2019



## Qabulda nega navbat tirband?

Oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayoni 15-iyundan boshlangan bo'lsa-da, abituriyentlar qabulning so'nggi kunlarini kutishni ma'qul ko'rdi. Natijada qabul tugashiga sanoqli kun qolganda oxiri ko'rinmas navbatlar yuzaga kelyapti.

Qabulning dastlabki o'n kunligida kuniga atigi 3-4 ming abituriyent hujjat topshirgan bo'lsa, 8-iyul holatiga ko'ra, bir kunda 81000 nafar abituriyentdan o'qishga kirish uchun arizalar kelib tushgan. Davlat test markazi ma'lumotlariga ko'ra, hozirga kelib (9-iyul holatiga ko'ra) ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar soni 362000 dan ortgan. Vaholanki, 15-iyundan 30-iyungacha 63 ming abituriyent ro'yxatdan o'tgan, xolos. Oldingi yillari eng ko'pi bilan bir kunda 65 mingga yaqin abituriyent oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan bo'lsa, bu yil bir kunda 100 mingga yaqin abituriyentni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjud.

7-bet

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING YIGIRMA SAKKIZ YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz tarixida o‘chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O‘zbekiston o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda.

Bugungi kunda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta‘minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar — aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik va xususiy mulk rivojiga keng imkoniyat ochib berish, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga qaratilgan dasturlarimizning ijobiy natijalari nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e‘tirof etilmoqda.

Xalqimiz uchun eng ulug‘, eng aziz ayyom, erkin, obod va farovon hayot qurish yo‘lidagi barcha yutuq va muvaffaqiyatlarimizning asosiy manbasi bo‘lgan Vatanimiz mustaqilligining yigirma sakkiz yilligini katta tayyorgarlik bilan kutib olish, bu qutlug‘ sanani uning mohiyati va ahamiyatiga, xalqimizning fidokorona mehnati, ezgu orzu-intilishlariga munosib tarzda nishonlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika komissiyasi bir hafta muddatda “Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!” degan bosh g‘oyani

o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturini ishlab chiqsin.

Ushbu dasturda 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” davlat dasturi, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Har bir oila — tadbirkor”, “Yoshlar — kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma‘no-mazmuni va ruhi mujassam etilishiga alohida e‘tibor qaratilsin.

Ayniqsa, oxirgi yillarda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarning mazmun-mohiyati, jamiyatimiz qiyofasi butunlay o‘zgarmani, bu ijobiy o‘zgarishlar yurtdoshlarimiz hayotida o‘z ifodasini topayotgani, xalqimizning turmush darajasini, ong-u tafakkuri, bilim va madaniyatini oshirish bo‘yicha qilingan ishlarni konkret dalil va misollar, chuqur ilmiy tahlillar va ekspertlik baholari orqali mamlakatimiz va xalqaro jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyatga egadir.

3. Respublika komissiyasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab aholining keng qatlamlari o‘rtasida ma‘rifiy uchrashuvlar, ochiq mulozim va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, dolzarb mavzular bo‘yicha fikr almashuvlar, madaniy tadbirlarni samarali o‘tkazish maqsadida tanliq olimlar, ijodkor ziyolilar va san‘atkorlardan iborat targ‘ibot guruhlari tashkil etilsin hamda ularning aniq reja asosida faoliyat olib borishi ta‘minlansin.

Bu tadbirlarni tashkil etishda mamlakatimizni modernizatsiya qilish,

turli soha va tarmoqlarni liberallashtirish borasida qo‘lga kiritilgan yutuq va natijalar bu yo‘ldagi dastlabki qadamlar ekanini ta‘kidlagan holda, balandparvoqlik, rasmiyatchilik va yuzakilik holatlariga yo‘l qo‘ymasdan, xolislik va haqqoniylik tamoyillari asosida ish olib borishga alohida e‘tibor qaratilsin.

4. Respublika komissiyasi o‘z yig‘ilishlarida belgilangan chora-tadbirlar mamlakatimiz poytaxti, viloyat va tumanlarida qanday amalga oshirilayotgani yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o‘tkaziladigan bayram dasturlarini tayyorlashga ommaviy tomoshalar bo‘yicha yuksak mahorat va tajribaga ega bo‘lgan senarist va rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, kompozitor va baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste‘dodli yosh ijrochilar, maqom va baxshichilik san‘ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi bilan birgalikda yurtimiz istiqlolini tarannum etadigan eng yaxshi qo‘shiq va musiqa asarlari uchun “Yagonasan, muqaddas Vatan!” respublika tanlovining yakuniy bosqichini o‘tkazsin.

Tanlov g‘oliblari va sovrindorlari Mustaqillik bayrami arafasida e‘lon qilinsin va taqdirlansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezi-

denti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi va boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda “Eng ulug‘, eng aziz”, “Ranglar jilosida — ona diyor”, “Vatan uchun yashaylik!” kabi an’anaviy ko‘rik-tanlovlarni yuqori darajada o‘tkazishni ta‘minlasin.

8. Belgilab qo‘yilsinki, o‘tkaziladigan bayram tadbirlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda mahalliy budgetlar hamda homiylik xayriyalari hisobidan;

Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti va Toshkent shahar mahalliy budgeti mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda qoplanadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2019-yil 8-iyul

Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!

## O‘zbekiston tarixiga yangicha nazar

Jizzax viloyati Zomin tumanida joylashgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining sanatoriyasida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligiga bag‘ishlab “O‘zbekiston tarixining yangi davri” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi.

Quyucq archazorlar qo‘ynidagi 4 gektarlik maydonda landshaft imkoniyatlaridan juda samarali foydalanib, milliy va zamonaviy me‘moriy loyiha asosida barpo etilgan 150 o‘rinli zamonaviy sanatoriyada 100 ta o‘rin Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi, 50 ta joy respublikamiz shoir va yozuvchilari uchun ajratilgan. Bugun bu yerda respublikamizning barcha hududlaridan kelgan dam oluvchilarni uchratasiz.

Sihatgoh Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy hamda Rossiya kabi mamlakatlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Olti qavatli zamonaviy binoning 1, 2 va 3 kishilik yotoqxonalarida, shinam va qulay oshxonada barcha qulaylik bor. 2,5 ming kitob fondiga ega kutubxonada, 150 o‘rinli anjumanlar

zalida, asosiy bino yonida landshaft arxitekturasida usulida qurilgan 180 o‘rinli amfiteatrdagi turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Sihatgoh majlislar zalida Prezidentimizning 2019-yil 8-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori munosabati bilan tashkil etilgan davra suhbatida ayni kunlarda O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati yo‘llanmasi bilan dam olayotgan respublikamizning bir guruh mehnat faxriylari, fan va madaniyat arboblari, yozuvchi va shoirlar, korxonalar ishchilari, sihatgoh xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda mamlakatimiz o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab borayotgani alohida ta‘kidlandi.

Davra suhbatida so‘z olgan “Slavutich” ukrain milliy madaniy markazi boshqaruvi raisi Vladimir Boyka, “Tafakkur” jurnali bosh muharriri Erkin A‘zam, O‘zbekiston Qahramonlari — Surxondaryo viloyati Angor

tumanidagi “Saidnosir” fermer xo‘jaligi rahbari Isaxon Bahromov, Qarshi shahridagi 22-ixtisoslashgan maktab-internet direktori Muhabbat Sharopova va boshqalar yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta‘minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning hayotimizdagi ahamiyatiga to‘xtaldi.

— Mamlakatimizda amalga oshirilgan katta ishlarga aynan o‘zimiz dam olayotgan ushbu sihatgoh ham yorqin misol bo‘ladi, — deydi jizzaxlik mehnat faxriysi, O‘zbekistonda Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Larina Pak. — Bu kabi o‘zgarishlarni yurtimizning barcha joyida ko‘rib turibmiz. Biz keksa avlod vakillari, ziyolilar yoshlarimiz qalbiga bu katta o‘zgarishlarning mohiyati, ahamiyati, maqsadini chuqur singdirishimiz kerak.

Toshqul BEKNAZAROV,  
O‘ZA muxbiri

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

# MATEMATIKA TA'LIMI VA FANLARINI YANADA RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH, SHUNINGDEK, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' ajdodlarimiz tamal toshini qo'ygan matematika fani ilm-fan va texnikaning zamonaviy tarmoqlari jadal rivojlanishi munosabati bilan hozirgi kunda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot, biologiya, raqamli iqtisodiyot sohasida va boshqa ko'plab sohalarda uning roli ayniqsa ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) o'z faoliyati davrida matematika fanini rivojlantirishga, respublika uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga sezilarli hissa qo'shdi va matematik tadqiqotlarning jahon darajasida e'tirof etilgan markazlaridan biriga aylandi.

Institutda funksional analiz, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi va algebra bo'yicha **ilmiy maktablar shakllandi va muvaffaqiyatli rivojlanmoqda**. Xodimlarning ilmiy tadqiqotlari besh marta **O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi**, 12 nafar taniqli olim O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zligiga va nufuzli Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS)ga saylangan.

Bonn, Kembrij, Parij, Seul, Santyago de Kompastela universitetlari va boshqa ilmiy markazlarning olimlari bilan birgalikda qo'shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Institutda davlat universitetlari, maktablar va akademik litseylarda ma'ruzalar o'qish va maxsus kurslar o'tish, shuningdek, magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilish amaliyoti keng joriy etilgan. Bugungi kunda ilmiy xodimlarning o'rtacha yoshi 47 yoshni, **ilmiy darajali ilmiy xodimlar ulushi esa 87,0 foizni** tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, har tomonlama tahlillar bir qancha tizimli vazifalarni aniqladi. Ularning amalga oshirilishi Institutning ilmiy loyihalarni xatlovdan o'tkazish, mavjud ilmiy salohiyatdan yuqori darajada foydalanish va uni rivojlantirishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishni, tadqiqotlarni joriy etish samaradorligining amaliy indikatorlari va maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilishini O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan yanada aniq muvofiqlashtirishni, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini talab etadi.

Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirish, fundamental, qidiruv va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish, oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining faoliyati va ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligini ta'minlash, ilm-fan, iqtisodiyot tarmoqlari va ishlab chiqarishning integratsiyasini mustahkamlash, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlari bilan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Institut jamoasining matematika fanini rivojlantirishga, ilm-fan va ta'limning integratsiyasini mustahkamlashga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga va Vatanimiz matematika maktablarining yutuqlarini targ'ib qilishga yo'naltirilgan faoliyati qo'llab-quvvatlasin.

2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining **Matematika fanini rivojlantirish va Institut faoliyatini takomillashtirishning quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni** nazarda tutuvchi maqsadli dasturini (keyingi o'rinlarda — Maqsadli dastur) **1-ilovaga muvofiq tasdiqlash to'g'risidagi taklifi qabul qilsin:**

**ilm-fanning turdosh sohalarda va iqtisodiyot tarmoqlarida ilmiy natijalardan foydalanish, shuningdek, Institutning muayyan ilmiy yo'nalishlarini fundamental izlanishlardan amaliy izlanishlarga qayta yo'naltirish dasturlarini ishlab chiqish;**

**2020—2022-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun matematika bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlash chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish;**

ilmiy natijalar keng muhokama qilinishini va zamonaviy ilm-fan yutuqlari ommalashtirilishini tashkil etish. **Institut ishlanmalarining doimiy ravishda yangilanadigan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish;**

ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash. **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari va Institut xodimlarining tajriba start-up loyihalari amalga oshirilishiga ko'maklashish;**

**Matematika sohasida jahon ilmiy markazlari, shu jumladan, MDH, Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakat-**

**larining yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar tashkil etish;** noshirlik faoliyatini yaxshilash va materiallar e'lon qilishda faollikni oshirish. **Ingliz tilidagi "O'zbekiston matematika jurnali" ilmiy nashri faoliyatini takomillashtirish;**

moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, xarajatlarni maqbullashtirish va Institutning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Infratuzilmani modernizatsiya qilish. **Xodimlar uchun ish sharoitlarini yaxshilash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish. Har yilgi "Ilm-fan yetakchisi" respublika tanlovinini o'tkazish.**

Maqsadli dastur to'liq bajarilishini ta'minlash, Institut faoliyati samaradorligini oshirishga to'stinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan muvofiqlashtirilgan va oldini oluvchi chora-tadbirlar ko'rilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S.Yuldasheva va vitse-prezidentlarga shaxsiy mas'uliyat yuklasin.

3. **2020—2024-yillarda Institutning ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Institutning ilmiy yo'nalishlariga muvofiq har yili Institut ilmiy-tadqiqot ishlari kalendar dasturlari ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi va Institut darsliklar, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, shu jumladan, elektron darsliklar, o'quv va ko'rgazmali qurollarni Institutning ekspert xulosasidan keyin e'lon qilish, ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish, matematika olimpiadalarini o'tkazish tartibini takomillashtirish yuzasidan bir oy muddatda takliflar kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida bir oy muddatda:

Maqsadli indikatorlar asosida **Fanlar akademiyasi tizimiga kiradigan ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy bo'linmalari va xodimlari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqsin;**

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibini belgilash bo'yicha** asoslangan takliflar kiritilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining **Institutning 2021-yilgacha maqsadli ko'rsatkichlarini (indikatorlarini)** (keyingi o'rinlarda — Maqsadli ko'rsatkichlar) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlash to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Belgilansinki, 2020-yildan boshlab ilmiy laboratoriyalar va ilmiy xodimlarning faoliyatini reyting tizimi asosida har yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Rayosatining qarori bo'yicha tashkil etiladigan maxsus komissiya tomonidan baholanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, "El-yurt umidi" jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Institut ilmiy xodimlarining 4-ilovaga muvofiq yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda malaka oshirishini ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "El-yurt umidi" jamg'armasi hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish va novatorlik qo'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari Institut ilmiy xodimlarining malaka oshirishini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Moliya vazirligining 2020-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan oliy ta'limdan keyingi ta'limda stajyor-tadqiqotchilar institutini (keyingi o'rinlarda — stajyor-tadqiqotchilar instituti) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda Institutga oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida o'qish uchun ajratiladigan qabul kvotasining yarmidan kam bo'lmagan miqdordagi qabul kvotasi stajyor-tadqiqotchilar instituti uchun ajratilishini ta'minlasin.

(Davomi 4-betda.)

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

# MATEMATIKA TA'LIMI VA FANLARINI YANADA RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH, SHUNINGDEK, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 3-betda.)

9. Institut tuzilmasiga: o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va natijadorligini oshirish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashtirishni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan Institut ilmiy rahbari — direktorning ilm-fan bo'yicha o'rinbosari lavozimi;

algebra va uning tatlari, differensial tenglamalar va uning tatlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatlilarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy laboratoriyalar kiritilsin.

Institut tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmasdan Yosh matematiklar o'quv markazi tashkil etilsin, unga quyidagi vazifalarni amalga oshirish yuklansin:

umumta'lim maktablari va litsey-larining o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalarining talabalari va doktorantlar uchun matematika bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish;

O'zbekiston terma jamoasini xalqaro matematika olimpiadalariga tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

iqidorli yoshlarni saralab olish va maqsadli tayyorlash jarayonlariga o'qitishning zamonaviy usullarini va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish;

yetakchi olimlar va yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan, xorijiy olimlar va mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb qilish.

10. Institutning yangilangan tuzilmasi 5-iloavaga muvofiq tasdiqlansin. Ilmiy kengash va Yosh olimlar kengashi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti bilan kelishgan holda tasdiqlanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

11. Belgilab qo'yilsinki, 2020-yil 1-yanvardan boshlab Institut xodimlari mehnatiga haq to'lash, bino va inshootlarini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish, shuningdek, joriy xarajatlarini qoplash O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

12. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari;

xalqaro moliya institutlari va boshqa institutlar, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag'lari;

xo'jalik faoliyatidan tushadigan mablag'lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda Institutga fundamental tadqiqotlarning ilmiy-texnik loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladigan budget mablag'lari ushbu qaror topshiriqlaridan kelib chiqqan holda talab etiladigan qo'shimcha budget mablag'larning bir qismini qoplashga yo'naltirilishini ta'minlasin.

14. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrda PQ-3365-son qaroriga muvofiq 2020-yilda Institut binosini (keyingi o'rinlarda — obyekt) kapital ta'mirlash, shuningdek, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ikki oy muddatda:

obyekt bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlasin va ularning belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Nodir qo'lyozmalar markazining bino va inshootlari bo'shatilishini ta'minlasin.

16. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asoslangan buyurtmanomalari asosida 2020-yilgi O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirishda obyektning kapital ta'mirlash uchun tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq kapital qo'yilmalarning tegishli limitlarini nazarda tutsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi obyektida kapital ta'mirlash va qurilish-montaj ishlari bajarilishining sifati ustidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini o'rnatin.

18. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi:

bir oy muddatda — belgilangan tartibda Institut ustavini tasdiqlasin va o'zaro davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin;

Institutning zamonaviy kompyuter uskunalari va boshqa tashkiliy texnika bilan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

ilmiy-tadqiqot muassasalari obyektlarini sotishdan tushadigan budgetdan tashqari mablag'lari hisobiga to'ldirilishini ta'minlasin;

ikki oy muddatda — manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritin.

19. 2019-yil 24-mayda ilmiy jamoat-chilik va oliy ta'lim muassasalari rektorlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda **Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi (keyingi o'rinlarda — Respublika kengashi) tashkil etilsin va unga quyidagi vazifalar yuklansin:**

fan va texnologiyalar sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish, shu jumladan, fan va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni muvofiqlashtirish, fan va texnologiyalar sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularning bajarilishi natijadorligini ta'minlash;

ilmiy-texnik siyosat strategiyasi, ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish va tasdiqlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

ilmiy-texnik loyihalarning davlat maqsadli dasturlarini tasdiqlash va ularning amalga oshirilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

har yilgi ilmiy-tadqiqot ishlari dasturlarini, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'laridan to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish hisobiga amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot muassasalarining maqsadli indikatorlarini tasdiqlash;

fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha milliy laboratoriyalar tizimini shakllantirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalar bilan to'ldirish va butlovchi hamda sarflash materiallari bilan uzluksiz ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

fan va texnologiyalar sohasida mamlakat ilm-fanini jahon yutuqlari bilan uyg'unlashtirish, ilmiy salohiyat

va innovatsion rivojlanishni reyting baholashda mamlakat imijini, shu jumladan, ilmiy ishlanmalarni faol tijoratlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish orqali oshirish;

ilmiy-tadqiqot, ta'lim va loyiha-konstruktorlik muassasalari, shuningdek, sanoat korxonalarini va tijorat tuzilmalarini tomonidan foydalanish maqsadida eng yangi ilmiy-texnik ishlanmalar to'g'risidagi ilg'or xorijiy tajribani izlash, umumlashtirish, tahlil qilishning davlat axborot-tahlil tizimini yaratish, O'zbekistonni rivojlantirish uchun ilmiy-texnik salohiyatning zamonaviy axborot-resurs bazasini shakllantirish;

muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hamda fan va innovatsion rivojlanish sohasini isloh qilish davomida yuzaga keladigan dolzarb masalalar hamda muammolarni muhokama qilish, shu jumladan, ommaviy muhokama qilish;

fan va texnika sohasida Davlat mukofotini berish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish hamda takliflar tayyorlash.

20. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashining shaxsiy tarkibi va Kengash to'g'risidagi nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda PQ-3416-son qarori bilan tashkil etilgan Ilmiy-texnik axborot markazini yuqori malakali kadrlar bilan butlash va uning faoliyatini faollashtirish yuzasidan takliflarni kiritin.

21. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S.Yuldashev zimmasiga yuklansin.

Qarorning ijrosi Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi majlislarida 2019-yil sentabr va dekabr oylarida hamda 2020-yil aprel oyida ko'rib chiqilsin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2019-yil 9-iyul

# O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga sharh

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan oliy ta'lim muassasalari rektorlari va respublika ilmiy jamoatchiligi bilan shu yil 24-maydagi uchrashuvda oliy ta'lim tizimidagi ishlar holatining tahlili bilan birgalikda ilmfanni yanada rivojlantirish, uning kadrlar tayyorlashga, ayniqsa, iqtidorli yoshlarni tayyorlashga qo'shadigan aniq ulushini ko'paytirish, ilmiy izlanishlarni kengaytirish va ularni tijoratlashtirish, respublika olimlarining mehnati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va moddiy rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan kompleks masalalar belgilandi.

Ushbu talablardan kelib chiqib mamlakat Fanlar akademiyasining ko'hna institutlaridan biri — 1943-yilda tashkil etilgan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining faoliyatini har tomonlama o'rganib chiqildi va tahlil qilindi.

Institut va uning ilmiy jamoasini haqli ravishda matematika fanlarining davomchisi deb aytish mumkin. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' ajdodlarimiz unga tamal toshini qo'yg'an edilar.

Matematika instituti o'z faoliyati davrida matematika fanlarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi. Funktsional analiz, differensial tenglamalar, ehtimollik nazariyasi va algebra bo'yicha ilmiy maktablar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Institut xodimlarining ilmiy tadqiqotlari besh marta O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi, 12 nafar taniqli olim O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga va nufuzli Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS)ga saylangan.

Institut oliy malakali kadrlar tayyorlashga faol hissa qo'shmoqda. Mamlakat oliy ta'lim muassasalari bilan mustahkam aloqalar o'rnatilgan, ma'ruzalar o'qish, maxsus kurslar o'tkazish va magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilish amaliyoti keng joriy etilgan. Ilmiy xodimlarning o'rtacha yoshi 47 yoshni, ilmiy darajali ilmiy xodimlar ulushi esa 87,0 foizni tashkil etadi. Doktoranturada 20 nafardan ortiq yosh olimlar ta'lim olmoqda, ular soni yildan-yilga o'sib bormoqda.

Institutning xalqaro aloqalari samarali rivojlanmoqda. Bonn, Kembrij, Parij, Seul, Santyago de Kompastela universitetlari va boshqa ilmiy markazlarning olimlari bilan birgalikda qo'shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

So'zsiz, ushbu barcha salmoqli natijalar matematika fanlarini yanada rivojlantirishni va Institut faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi. Qarorda Institutning mavjud ilmiy salohiyatidan yanada samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar qayd etilgan.

Masalan, Institutning amaldagi tuzilmasi va ilmiy xodimlari soni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning dolzarb vazifalarini hal etish uchun amaliy ilmiy yo'nalishlarni kengaytirish imkonini bermayapti. Mamlakatimizda matematika sohasidagi tadqiqotlar bo'yicha bosh markaz bo'lgani holda Institut tadqiqotlarni jadal olib borish, ta'lim jarayoni bilan integratsiyani mustahkamlash, bir qator bo'linalarni amaliy ilmiy ishlanmalarga qayta yo'naltirish uchun zamonaviy infratuzilmaga ega emas.

Iste'dodli yoshlarni tanlashga Institut olimlarini jalb etishning mavjud tizimi yosh mutaxassislarni tayyorlashning uzluksiz va samarali mexanizmini ta'minlash, shu jumladan, matematika bo'yicha xalqaro olimpiadada yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini bermayapti.

Respublikada bilimlarning bazaviy tarmog'i sifatida matematika ilmiy maktablar tadqiqotlarining joriy holatini tanqidiy tahlil qilish va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun maqsadli ko'rsatkichlarning amaliy indikatorlarini ishlab chiqishga va ilmiy ishlanmalarni xatlovdan o'tkazishga chetiyoz sezayotganligi alohida qayd etilgan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda kompleks ustuvor vazifalar belgilangan. Ularning amalga oshirilishi matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, Matematika institutining faoliyatini tubdan takomillashtirishni ta'minlash imkonini berishi kerak. Qayd etish zarurki, davlatimiz rahbarining topshiriqlariga muvofiq ushbu jarayonda nafaqat Fanlar akademiyasining, balki ixtisosli vazirliklar

va idoralarning hamda respublika Hukumatining faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qaror bilan:

**birinchi** — shu jumladan, ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida va iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanishni; Institutning muayyan yo'nalishlarini fundamental izlanishlardan amaliy izlanishlarga qayta yo'naltirishni; iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun matematika bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlash yuzasidan 2019—2022-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutilgan matematika fanlarini rivojlantirishning maqsadli dasturi tasdiqlandi;

**ikkinchi** — Institutning 2020—2024-yillarga mo'ljallangan aniq ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi tasdiqlandi. Bunda fundamental tadqiqotlar bilan birgalikda amaliy matematika alohida e'tibor qaratilgan;

**uchinchi** — va buni alohida qayd etish zarurki, Institutning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) birinchi marta ishlab chiqildi va tasdiqlandi, ular rahbariyat, har bir ilmiy xodim va umuman Institutning mamlakatda matematika fanlari rivojlanishiga real shaxsiy hissasini xolisona baholash imkonini beradi;

**to'rtinchi** — xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish va Institut ilmiy xodimlari malakasini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari tasdiqlandi. Hamkorlikning ilmiy yo'nalishlari 18 ta mamlakatda, shu jumladan, MDH mamlakatlari, Yevropa, Amerika va Osiyoning yetakchi ilmiy muassasalarida ta'lim olish va tajriba ortirishni nazarda tutadi.

Ushbu istiqbolli vazifalardan kelib chiqib Institutning tashkiliy tuzilmasi tubdan qayta ko'rib chiqildi va uning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Birinchi marta ilmiy-tadqiqot muassasalarini boshqarishning xalqaro tajribasidan kelib chiqib amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi va natijadorligini oshirish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan integratsiyasini

ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan direktor o'rinbosari — Institutning ilmiy rahbari lavozimi joriy etildi. Bo'limlar o'rni matematika fanlari bo'yicha ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi. Shuningdek, yosh matematiklar o'quv markazini tashkil etish nazarda tutilgan.

Qarorda, shuningdek, ham matematika fanlarini, ham Institutni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning aniq chora-tadbirlari belgilangan. Talab etiladigan ilmiy xodimlar soni qayta ko'rib chiqildi. Xodimlarning ish haqini ularning ilmiy tadqiqotlarga qo'shgan aniq ulushi hisobga olingan holda oshirish chora-tadbirlari belgilandi. Institut binosini mukammal ta'mirlashni, zarur uskunalar, hisoblash texnikasi vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan butlashni tashkil etish yuzasidan bir qator topshiriqlar berildi.

Qarorda Matematika institutini rivojlantirish masalalarini hal etish bilan birgalikda fan va texnologiyalar sohasida davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Buning uchun Respublika fan va texnologiyalar kengashini tashkil etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Fanlar akademiyasiga Maqsadli indikatorlar asosida Fanlar akademiyasi tizimiga kiradigan ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy bo'linalari va xodimlari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibini belgilash bo'yicha asosli takliflar kiritish topshirildi.

Davlatimiz rahbarining qarorida ushbu kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, eng avvalo, Institut rahbariyatiga, har bir ilmiy xodimga va butun jamoaga, matematika fanlarini yanada rivojlantirishning qo'yilgan maqsadlari va vazifalariga so'zsiz erishishni ta'minlashda, shuningdek, Vatanimiz ilmiy maktablarining jahon darajasidagi yutuqlarini mustahkamlashda ularning intilishi, tashabbuskorligi va mas'uliyatiga hal qiluvchi darajada bog'liq ekanligi alohida ta'kidlangan.

## Ma'rifiy hamkorlikning yangi ufqlari

Poytaxtimizda O'mon Sultonligining Arxivlar va hujjatlashtirish milliy boshqarmasi vakillaridan iborat delegatsiya mehmon bo'lib turibdi. Delegatsiya a'zolari ishtirokidagi dastlabki uchrashuv O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori Bahrom Abdulhalimov Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ma'rifiy islohotlarda milliy merosimizni o'rganish, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot fidoiylari uchun zarur imkoniyat va sharoitlarni yaratish, ibratni an'ana va qadriyatlar bardavomligini ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

Uchrashuvda mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarni, aziz-avlodlarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadimjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analarini ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilgani va bu ishlar izchil davom ettirilayotgani e'tirof etildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlatimiz rahbarining 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan ushbu institut mamlakatimizdagi qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy yozma manbalarni saqlash, o'rganish, ilmiy asosda tadqiq etish va targ'ib qilish bo'yicha yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi.

Ziyo maskanida Sharq qo'lyozmalari fondini saqlash, ta'mirlash, boyitish va muayyan tizimga keltirish, arab yozuvidagi turli mavzularga oid yozma yodgorliklar va epigraflar namunalarni tadqiq qilish, ularni asl holda hamda o'zbek va xorijiy tillarda ilmiy izohlar, tarjimalar bilan nashr etish, ilmiy muomalaga kiritish yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

— Tashrifimizdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishdir, — deydi O'mon Sultonligi Arxivlar va hujjatlashtirish milliy boshqarmasi direktori Hamad ibn Muhammad al-Davyani. — Qo'lyozma va arxivlashtirish sohasidagi Anglashuv memorandumini imzolash hamkorlikning ko'pgina qirralarini

nazarda tutadi. O'zaro tajriba va ilmiy kadrlar almashinuvi, qo'lyozmalarni restavratsiya qilish, mavjud qo'lyozma nusxalarining almashinuvi kabilar shular jumlasidandir. O'yaymanki, bunday hamkorlik ikki mamlakat uchun ham foydalidir. Ikkinchi jihati Anglashuv memorandumini doirasida tarixiy merosni o'rganishga oid ilmiy-ma'rifiy ko'rgazmalar, davra suhbatlari, seminar va konferensiyalar tashkil etish ham nazarda tutiladi. O'zbekistonda yetishib chiqqan olimlar jahon ilm-fani, madaniyati, ma'rifati, sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganini yuksak hurmat va chirom bilan e'tirof etamiz. Ularning boy ilmiy merosini dunyo bo'ylab targ'ib etish g'oyat muhimdir.

Uchrashuv davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O'mon Sultonligining Arxivlar va hujjatlashtirish milliy boshqarmasi o'rtasida Qo'lyozma va arxivlashtirish sohasidagi Anglashuv memorandumini imzolandi.

Shu kuni mehmonlar poytaxtimizdagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, "Hazrati Imom" yodgorlik majmuasini ko'zdan kechirdi. Tashrif davomida delegatsiya a'zolarining Toshkentdagi Xalqaro Islom akademiyasi, O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi va boshqa ma'rifat maskanlari faoliyati bilan tanishishi ham ko'zda tutilgan.

# O'zbekiston va Yaponiya oliy ta'limi hamkorligi

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida O'zbekiston va Yaponiya oliy ta'lim muassasalari rektorlarining III konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda kunchiqar mamlakatning 20 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi vakillari hamda yurtimizning 37 universiteti mutasaddilari va professor-o'qituvchilari qatnashdi.

Konferensiya ochilishida so'zga chiqqan Yaponiya ta'lim, sport, fan va texnologiyalar vaziri o'rinbosari Hiroyuki Nakamura bu hamkorlikning istiqbol haqida gapirib, ikki davlat o'rtasidagi do'stlik aloqalari yildan yilga mustahkamlanib borishiga ishonch bildirdi.

Ochilish marosimidan so'ng qatnashchilar tabiiy va gumanitar yo'nalishlardagi sho'balarda muhokama va muzokaralarni davom ettirib, o'zaro tajriba va fikr almashdilar. Ayniqsa, universitet rektorlari kelgusidagi

akademik va ilmiy hamkorlik, talabalar almashinuvi, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, qolaversa, Yaponiyaning yetakchi innovatsion markazlari, texnoparklari va universitetlari bilan aloqalarni yanada jadal-lashtirish bo'yicha kelishuvlarga erishdilar.

— Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti bilan Yaponiyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari

o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi, — deydi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi matbuot xizmati rahbari Oybek Qo'shboqov. — Bu kelishuv natijasida yurtimiz yoshlari Yaponiyaning oliy ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishib, orttirgan tajribalarini amaliyotda qo'llashlariga ishonamiz.

Tadbir doirasida mehmonlar Samarqand shahriga tashrif buyurib, tarixiy obidalarga sayohat qildilar, Samarqand davlat universiteti professor-o'qituvchilari bilan uchrashdilar.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston va Yaponiya oliy ta'lim muassasalari rektorlarining I va II konferensiyalari ilk bor 2010-yili Tokioda, ikkinchisi 2015-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan.

Sohiba MULLAYEVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

## Yangi o'quv yiliga tayyormisiz?

Narpay tumanidagi 57-maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida yangi o'quv yiliga tayyorgarlikka bag'ishlangan tuman seminari o'tkazildi.

Seminarda XTB mudiri o'rinbosari E.Po'latov yangi o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha belgilangan vazifalar haqida gapirdi.

— Yil davomida ta'lim sifati samarali bo'lishi uchun yozgi ta'ildagi tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega, — deydi boshlang'ich ta'lim metodisti G.Barnoxo'jayeva. — Shu bois bugungi seminarda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'limdagi yangiliklar haqida tushuncha berildi. Tumandagi ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish imkoniyati yaratildi.

Nigora ZOIROVA,  
Narpay tumanidagi  
61-maktab o'qituvchisi

## Ijodkor va kitobxon uchrashuvi

Quyichirchiq tumanidagi 36-maktabda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Davron Rajab, xalq ta'limi bo'limi metodistlari, maktab kutubxonachilari, o'qituvchilar va o'quvchilar ishtirokida "Ijodkor va kitobxon" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'z olganlar besh muhim tashabbusning mazmun-mohiyati, amalga oshirilayotgan ishlar, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Tadbir she'rxonlikka ulandi. Dastlab shoir Davron Rajab o'z she'rlaridan namunalar o'qidi. Savol-javoblardan so'ng tumanning yosh ijodkorlari ham o'z ijodiy mashqlaridan o'qib berdi.

Tadbirda faol ishtirok etgan yoshlar Yozuvchilar uyushmasining esdalik sovg'alari va badiiy adabiyotlar to'plami bilan taqdirlandi.

Mahmud RAJABOV,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

## "Ma'rifat" gazetasining qadrlil, kitobsevar mushtariylari!



Yozgi ta'tilga qaramay, "Ma'rifat" kitobxonini tanlovda faol ishtirok etayotganingizdan xursandmiz! Dam olish kunlari ham asar mulolaasi bilan mashg'ul bo'lgan bolalar o'qish boshlangach bilimi bilan o'rtoqlaridan ajralib turadi. Shu bois kitobni qo'ldan qo'ymang!

Iyun oyida o'qilgan asar — Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" qissasi haqidagi taassurotlaringiz bilan tanishib chiqdik. Bir-biridan teran mulohazalaringiz bizni quvontiradi. Gazetamizning keyingi sonida Shofirkon tumanidagi 40-maktab o'quvchisi Mohinabonu Rustamova, Jizzax shahridagi 23-maktab o'quvchisi Muxlisa Toshpo'latova, Termiz tumanidagi 9-maktab o'quvchisi Gulnora Xolmurodova, Pitnak shahridagi 9-maktab o'quvchisi Nuriya Yarasheva, Romitan tumanidagi 23-IDUM o'quvchisi Feruza G'aniyevaning taassurotlari bilan tanishishingiz mumkin.

Eslatib o'tamiz, yil so'ngida tanlovning barcha ishtirokchilari orasidan g'oliblar aniqlanadi va "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyotining esdalik sovg'alari hamda gazetamiz faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi!

Takliflaringizni inobatga olib, iyul oyida mutolaa uchun sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini tavsiya etamiz. U onalar madh etilgan eng go'zal asarlardan biri ekanini yaxshi bilsangiz kerak. Bu asarni o'qigan har bir inson, avvalo, o'z onasini ko'z oldiga keltiradi... Xullas, asarni o'qiganingizdan so'ng fikrlashamiz!

Taassurotlaringizni [info@marifat.uz](mailto:info@marifat.uz) elektron pochta manziliga yoki [@marifatkitobxon](https://t.me/marifatkutobxon) "Telegram" manziliga yo'llashingiz mumkin!

## O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



✓ Endi dars o'tishi uchun o'qituvchiga litsenziya beriladi, deb eshitdim. Bu litsenziyani olish uchun yana test topshirar ekanmiz. Nima, o'qituvchining test ishlab, variant yodlashdan boshqa ishi yo'qmi? Attestatsiyaning o'zi o'qituvchining dars berishga yaroqli ekanligini aniqlashga xizmat qilmaydimi?

Lobar YOQUBOVA

✓ Farzandlarim meni o'quvchilarimdan qizg'anishadi. O'qituvchilik oddiy kasb yoki tirikchilik manbasi emas, buni men taqdir deb bilaman. Shu bois o'zini ramkaga solish, dars tugagach, o'z hayotiga butkul qaytish va ishni, o'quvchilarni o'ylamasdan mumkin emas. Farzandlarim ulg'ayishadi va bu qizg'anishlari noto'g'ri ekanini anglaydigan darajaga yetishadi. Ammo men o'shanda ham o'quvchilarim haqida qayg'urib yurgan bo'laman.

Diidora BEKMURODOVA

✓ O'qituvchiga avtokredit, imtiyozli uy kabi va dalar "O'qituvchi" tarif rejasini bilan nihoyalaniq qolmasa bo'ldi.

Zebo RUSTAMOVA

✓ Kundan kun moddiy ehtiyojlar ortib ketyapti. Hammaning dardi pul topishdan iborat bo'lib qolyapti. Farzandning qomini to'ydirish, uni birovdan kam qilmay kiyintirish va hatto repetitorga berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'rgan ota-onalar tarbiyaga ham mas'ulliklarini, bolaga vaqt ajratish kerakligini unutmashliklari kerak. Aks holda barcha urinishlar zoye ketadi.

Muhayyo BOYMURODOVA

✓ Ustozimning bir gapini sinf rahbarlik faoliyatimda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. "Bir o'quvchini bir kun e'tibordan chetda qoldirsang, o'z o'rniga keltirguningcha bir hafta qiyalasan".


Oybek URUNOV

✓ Adabiyot darsliklarida badiiy asarlar so'ngida asar haqida xulosa beriladi. Mana shu aslida xato. O'quvchi asarni teran anglamay turib, xulosani o'qib oladi va shuning o'zi yetarli deb o'ylaydi. Natijada asarning mazmun-mohiyati uning ongida darslik mualliflarining fikrlari bilan chegaralanib qoladi. O'quvchining badiiy asarni o'qib chiqishiga va uni mustaqil tahlil qilishiga imkon beraylik!

Dilfuza SUVONOVA

Abituriyent — 2019

## Qabulda nega navbat tirband?



(Davomi. Boshi 1-betda.)

Bu yil oliy ta'lim muassasalarida 89 ta qabul komissiyasi, 201 ta davlat xizmatlari markazi faoliyat olib bormoqda. 400 dan ortiq operatorlar abituriyentlardan hujjatlarni qabul qilyapti.

### Maqsadli qabul: qayerga nechta o'rin?

Maqsadli qabul chekka hududlarda ehtiyoj yuqori sohalar bo'yicha hududlar kesimida abituriyentlarni o'qishga qabul qilishni nazarda tutadi. O'qishga kirish uchun tanlov esa har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladi. Qabulda qatnashmoqchi bo'lgan abituriyentlar tegishli hududda yashayotgan bo'lishi lozim.

Doimiy ro'yxatdan o'tgan joyi o'sha hududda, biroq o'zi maqsadli qabulga tushmaydigan hududda yashayotgan bo'lsa, unda o'sha abituriyent maqsadli qabulda qatnasholmaydi.

Shuningdek, maqsadli qabulga faqat muayyan hududda yashayotgan va hududning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tomonidan berilgan diplomga ega bo'lgan abituriyentlar hujjat topshira oladi. Masalan, qashqadaryolik abituriyent o'rta maxsus ta'limni Toshkent shahrida olgan bo'lsa, unda maqsadli qabul kvotalariga da'vogarlik qila olmaydi. U albatta Qashqadaryo viloyatidagi ta'lim muassasasida tahsil olgan bo'lishi shart. Maqsadli qabul tanlovda qatnashib davlat granti asosida o'qishga qabul qilinmagan abituriyentlar mazkur ta'lim yo'nalishida to'plagan test ballari bilan umumiy to'lov-kontrakt doirasidagi tanlovda ishtirok etadi.

Respublikamizning chekka hududlarida pedagogika hamda tibbiyot sohasi kadrlariga ehtiyoj katta. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi qarori aso-

sida 2019-2020-o'quv yilida respublika OTM bakalavriyatining kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlarida xalq ta'limi sohasida oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoj yuqori hududlar uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlari belgilandi.

Umumiy hisobda maqsadli qabul uchun respublikamizning 9 ta hududidagi 48 ta tuman(shahar)ning olis, chekka va tog'li hududlarida joylashgan maktablarni oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash uchun 815 ta o'rin ajratildi.

Hududlar kesimida qaraydigan bo'lsak, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari uchun boshqa viloyatlarga qaraganda ko'proq o'rin ajratilgan. Masalan, Samarqand uchun 12 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 182 ta, Surxondaryo viloyati uchun 155 ta hamda Qashqadaryo viloyati uchun 140 ta maqsadli o'rin ajratilgan. Navoiy viloyati uchun eng kam maqsadli kvota belgilangan bo'lib, 7 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha atigi 9 ta o'rin mavjud.

Bugungi kungacha abituriyentlar eng ko'p tanlayotgan oliy ta'lim muassasalari sirasida Qarshi davlat universiteti ham bor. Universitetga 13 608 nafar abituriyent hujjat topshirgan (9-iyul holatiga ko'ra). Umumiy hisobda eng ko'p tanlanayotgan ta'lim yo'nalishlari esa maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish hamda pedagogika va psixologiya yo'nalishlaridir.

— Maqsadli qabul bo'yicha abituriyentlarni qabul qilish jarayoni qizg'in

davom etmoqda. Ko'pchilik maqsadli qabulni umumiy kvotadan tashqari deb talqin qilmoqda, lekin bu alohida emas. Bu borada abituriyentlarga tegishli tushuntirishlar berilmoqda, — deydi Qarshi davlat universiteti qabul komissiyasi xodimi Eldor Baratov. — Masalan, Yakkabog' tumani uchun ikkita grant o'rin ajratilgan, deylik, lekin mazkur yo'nalishga umumiy hisobda 50 nafar abituriyent hujjat topshirdi. Shularning ikkovi qolgan 48 nafar abituriyent bolidan yuqori bal yiqqan bo'lsa, maqsadli qabul asosida talabalikka tavsiya qilindi. Agar yetarli ball yig'masa, umumiy tanlovda ishtirok etishi mumkin. Viloyatning chekka hududlarida chet tillar, tarix, matematika fanlaridan dars beradigan malakali kadrlar nihoyatda kam. Shu bois ham viloyatimiz uchun boshqa viloyatlarga qaraganda ko'proq maqsadli kvota ajratilgan.

Joriy o'quv yilida Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l, Taxtako'pir, Mo'ynoq va Ellikqal'a tumanlariga maqsadli qabul uchun Nukus davlat pedagogika institutida 11 ta ta'lim yo'nalishida 61 ta joy ajratildi. O'rinlar asosan matematika, fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, tarix hamda informatika o'qitish metodikasi, xorijiy til va adabiyoti, ingliz tili, shuningdek, boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishlaridan iborat.

Maqsadli tayyorlanayotgan kadrlar 3 yildan 10 yilgacha tegishli hududlarda ishlab berishi kerak.

Fayoza AVLAYEVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

## Harbiy tavsiyanoma ahamiyatini yo'qotdi(mi?)

Nihoyat ko'p yillardan beri jamoatchilikning eng ko'p e'tirozi va muhokamasiga sabab bo'layotgan mavzu — harbiy tavsiyanomaga ega abituriyentlarga berilayotgan imtiyoz masalasi o'z yechimini topdi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi farmoniga binoan endilikda harbiy tavsiyanomaga ega abituriyentlar mazkur imtiyozdan oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan umumiy kvota doirasida foydalana olmaydi. Biror oliy ta'lim muassasasiga o'qishga topshirganda, unga tavsiyanomasi uchun hech qanday qo'shimcha ball berilmaydi.

Xo'sh, bu yilgi davlat test imtihonlarida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalari ega bo'lganlar

mazkur imtiyozdan qanday foydalanishi mumkin?

Imtiyozga ega bo'lganlar, avvalo, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga topshirgandagina to'plagan baling 50 foizi miqdorida qo'shimcha ballni qo'lga kiritadi.

Mahalliy oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan imtiyozli yigitlar harbiy tavsiyanomaga ega abituriyentlar uchun belgilangan alohida 5 foizlik kvota doirasida o'zaro bellashadi. Masalan, Toshkent davlat texnika universitetiga hujjat topshirgan 500 nafar imtiyozli abituriyent 208 o'rin uchun kurashadi. Ulardan eng yuqori ball to'plagan 38 nafari davlat granti, qol-

gan 170 nafari to'lov-shartnoma asosida o'qiydi. Qolganlar olgan bali bo'yicha umumiy kvotada omadini sinab ko'radi. Huquqshunos-bloger Xushnud Xudoyberdiyevning "Telegram"dagi sahifasida bu borada ham tushunarsiz holat mavjudligi ta'kidlanadi. Uning fikricha, tavsiyanomaga ega abituriyent alohida ajratib olingan kvota doirasida to'lov-shartnoma asosida o'qishga tavsiya etilsa, lekin u to'plagan ball umumiy kvota guruhida davlat granti asosida o'qishga yetarli bo'lsa, unda bu masala qanday hal etiladi. "Bu harbiy tavsiyanomaga ega abituriyentga nisbatan adolatsizlik bo'lib qolmaydimi? Balki buning javobi allaqachon mutasaddilarda bordir, kim bilsin", deydi huquqshunos-bloger.

Harbiy tavsiyanomaga ega abituriyentlar uchun belgilangan ushbu 5 foizlik kvota doirasida



o'qishga qabul qilish tizimining o'tgan yilgidan farqli jihati shuki, endi bu tartib Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi kabi ijodiy imtihon talab etiladigan OTMlarda ham amal qiladi.

Eslatib o'tamiz, 2006-2011-yillarda harbiy tavsiyanomaga ega abituriyentlarga maksimal baling 25 foizi (56,7 ball), 2012-2016-yillarda 27 foizi (61,2 ball), 2017-2018-yillarda esa o'zi to'plagan baling 50 foizi miqdorida imtiyoz qo'llanilgan.

Abror UMARQULOV,  
"Ma'rifat" muxbiri



## Majburiy mehnat sababi aniqlandi

Xalq ta'limi vazirligining xabar berishicha, Namangan viloyati Kosonsoy tumani markazida tashkil etilayotgan "Yashil xiyobon" hududida xalq ta'limi tizimida faoliyat yurituvchi texnik xodimlarni majburiy mehnatga jalb qilish holati o'rganib chiqildi.

Vazirlik huquqiy-nazorat xizmatining o'rganishi natijasiga ko'ra, 2019-yil 28-iyun kuni har bir ta'lim muassasasiga 10 metrdan joy ajratilib, direktorlarga beton quyish hamda obodonlashtirish ishlarini bajarish yuzasidan topshiriq berilgan.

Topshiriqqa asosan, 29-iyun kuni tuman xalq ta'limi tizimining 80 nafar texnik xodimi yangi barpo etilayotgan "Yashil xiyobon" hududida "shanalik" niqobi ostida eni 1,5—2 metr, uzunligi 410 metr joyga beton quyish va obodonlashtirish ishlariga majburiy jalb etilgani ma'lum bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-avgustdagi qarori va «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018-yil 5-sentabrdagi farmoniga muvofiq Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tizimdagi ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ishchi-xodimlarini faoliyatiga tegishli bo'lmagan ishlarga, ya'ni obodonlashtirish, dala ishlari, paxta yig'im-terimi, majlislarda qatnashish, uyuma-uy yurish va boshqa tadbirlarga jalb etmaslik vazifasi yuklatilgan.

Ushbu holat yuzasidan o'tkazilgan o'rganish natijasi bo'yicha Kosonsoy tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi F.N. vazifasidan ozod etilgan. M.Alloxonova Kosonsoy tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri vazifasiga tayinlangan.

Kosonsoy tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 80 nafar xodimi majburiy mehnatga jalb etilgani uchun mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko'rilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori nomiga joriy yilning 4-iyul kuni xat yuborilgan.

Xalq ta'limi vazirligi o'qituvchilarning shikoyatlarini qabul qiluvchi virtual inspektorni ishga tushirgan. O'qituvchilar majburiy mehnatga jalb etilganida, huquqlari buzilganda yoki turli to'lovlarga majburlangan holatlarda ovoz.uzedu.uz sayti yoki +998 99 988 10 06 telefon va "Telegram" raqamiga murojaatlarini yuborishi mumkin.

### Bilasizmi?

## Mashaqqatli mehnat va boy tasavvur hosilasi

Kimdir iqtidorni tabiat ato etgan inoyat, deb bilsa, yana kimdir ajdodlar tajribasining hosilasi, deb qaraydi. Menimcha, iqtidor ota-onaning e'tibori, mehri va tirishqoqligi tufayli bo'y ko'rsatadi. Farzandlarimizdagi iqtidor uchun javob beruvchi mudroq genlarni uyg'otish uchun har kuni astoydil mehnat qilishimiz kerak, deydiganlar ham yo'q emas. Aslida-chi? Iqtidor meros bo'lishi mumkinmi? G'ayrioddiy qobiliyatlar genga bog'liqmi?

Amerikalik olimlardan biri bundan ko'p yillar muqaddam bir tadqiqot o'tkazib, Nobel mukofoti sovrindorlaridan sun'iy yo'l bilan 200 nafar farzandni dunyoga keltirdi. Ammo bu bolalar 20 yoshga to'lganda, ularning ongi boshqa tengdoshlarinikidan hech qanday farq qilmasligi aniqlanadi. Faqat bittasigina 2 yoshida kompyuterdan bemalol foydalanar, 5 yoshida "Hamlet"ni o'qirdi. Ammo u ham kelajakda biror yutuqqa erishmadi Bundan shu narsani bilish mumkinki — iqtidor genlarga unchalik ham bog'liq hodisa emas. Ammo ajdodlardan mavjud qobiliyatlar qaysidir ko'rinishda avlodlarga meros bo'lib qolishi isbotlangan.

Taixdan ma'lumki, Alisher Navoiy bobomiz 10—12 yoshida yozgan:

*"Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim paydo bo'lar"*

*yulduz, nihon bo'lg'ach qu-yosh"*

g'azalini Lutfiy tinglab, "O'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu ikki misraga almashtirardim", degan ekan. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilganini bilamiz. 4 yoshida savod chiqarib, turkiy va forsiy tillarni mukammal egallagan. Uning ikki tog'asi — Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiy yetuk shoir bo'lgan.

Iqtidorni meros qilish darajasi musiqa sohasida juda yuqori. Masalan, Motsartning otasi musiqachi edi, farzandi shu kasbni tanladi. Baxlar oilasidan sakkiz avlod musiqa bilan shug'ullangan. Lekin ularning yuksak iqtidor sohibi bo'lishi yo'lida ota-onasi ko'p mashaqqat chekkanini aniqlashgan. Demak, ular da-ho bo'lib tug'ilmagan, faqat ota-onalari ularning iqtidorini rivojlantirish uchun sharoit yaratib bergan.

Iste'dod 99 foiz holatda

mashaqqatli mehnat va bir foiz boy tasavvur hosilasidir. Bundan tashqari, bola o'sa-yotgan muhit, tarbiya va, eng asosiysi, yaxshi muallimlarning roli beqiyos. Bolaning rivojlanishini uning moyilligi va tarbiyasi belgilab beradi. Masalan, bir bola iqtidorining ro'yobga chiqishi 90 foiz holatda uning qiziqishlari va 10 foiz tarbiyasiga bog'liq, boshqasi misoli toza varaqdek gap — 10 foiz qiziqish bo'ladi, qolgan 90 foizini tarbiyalab olish kerak. Shuningdek, ota-ona farzandi bilan doim muloqotda bo'lishi lozim. Shunchaki muloqot qilish emas, balki har bir muloqot chog'ida bolaning biror jihatini, masalan, intiluvchanligi, qiziquvchanligi, irodasi, hayratlanish, nostandart fikrlash, xotirani kuchaytirish, baho berish kabilarini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Genlar bizga imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu imkoniyatlarni rivojlantirib borish esa o'z qo'limizda. Ammo ular taqdirimizni belgilamaydi. O'zimiz rivojlantirishga qiynalgan xislatlarni murabbiy yoki o'qituvchi yordamida rivojlantirish mumkin. Unutmaylik, iqtidor — bu tabiatning buyuk in'omidir.

Abrorjon QUDRATOV,  
Namangan shahridagi  
35-maktab o'qituvchisi

**Qadrlil mushtariylar! Har safar tanlov natijasini ma'lum qilish arafasida g'olib bo'lgan o'qituvchining quvonchi ko'z oldimga kelib, xursandchilik bilan ism-familiyasini e'lon qilardik. Bu safar ishtirokchilarimizning aksari bitta-ikkita to'g'ri javob berish bilan cheklandi, mutlaq g'olib yo'q. Balki savollarimiz murakkablik qilgandir. Yoki kitoblardan javob izlashga vaqtiniz bo'lmagandir? Nima bo'lganda ham kayfiyatingizni tushirmang. Siz uchun bir-biridan qiziqarli savollarni e'lon qilishda davom etamiz.**

### Iyul oyi savollarining javobi bilan tanishing:

1. Ular tabiatning buyuk hodisasi hisoblanadi. Hech bir kompaniya yoki tashkilot uni yasay olmaydi. Tabiat uni o'ta chiroyli ranglarga boy qilib yaratgan. Oq, ko'k, hatto qora ranglilari ham uchraydi. Tabiatda uchraydigan bu katta va chiroyli narsa nima? Javob: aysberg.

2. U davlatni dengiz qirg'og'idan tomosha qilsangiz osmon bilan yer tutashgan joy qorayib ko'rinadi. Shu sababdan ushbu Yevropa davlatining bayrog'ida qora rang mavjud. U qaysi davlat? Javob: Estoniya.

3. Xalqimizda azaldan beshik tabarruk hisoblanadi. Bolaga ko'z tegmasligi uchun beshikka turli ko'zmunchoqlar, har xil o'yinchoqlar ilib qo'yiladi. Ayrim joylarda chaqaloqlar yotgan beshiklarga bir belgi qo'yiladi. Bu qanday belgi va u nimani anglatadi? Javob: beshikkerti, qiz chaqaloqning unashtirib qo'yilganini bildirish uchun qo'yiladi.

### Iyul oyi uchun savollar bilan tanishing:

1. Deyl Karnegi fikricha, inson uchun dunyoda 3 ta eng zarur narsa mavjud. Birinchisi yordamida dunyoqarashimiz shakllanadi. Ikkinchisi bilan uni saqlab turamiz. Uchinchisi bilan u dunyo tadorigini ko'ramiz. Odam uchun muhim uch narsa nima ekanini toping.

2. Rivoyatlarga ko'ra, elda qahatchilik bo'lib yeyishga ham, ekishga ham bir siqim don topilmaganda, bir dono kishi sichqon uyasini kovlab ancha don topib oladi. Sichqonning inidan chiqqan don bilan el ocharchilikdan qutulib qoladi. Shu sabab odamlar sichqonga minnatdorliklarini bir yo'l bilan izhor qilishgan. Bu qanday yo'l edi?

3. Qirg' bilan oltmish orasidagi o'nlik dona son ma'nosini anglatgan "ellik" so'zi aslida qadimda qanday ma'noni anglatgan?

Turli tushunmovchiliklarning oldini olish, mushtariylar yashayotgan hudud masofalarining har xil ekanini hisobga olib, savollar gazetamizda chop etilgandan so'ng [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz) sayti hamda [@marifatmushtariylari](mailto:@marifatmushtariylari) "Telegram" guruhida ham e'lon qilinadi. Javoblar esa [info@marifat.uz](mailto:info@marifat.uz) elektron manzirimizda hamda [@Charos\\_Burxon](mailto:@Charos_Burxon) "Telegram" manzilida qabul qilinmoqda.



Asab tizimidagi o'zgarishlardan shikoyat qiluvchilarning aksariyati yoshiga nisbatan 7—9 yosh katta ko'rinadi.

## Saboq

O'shanda chet tillar institutining uchinchi kurs talabasi edim. Sutni qayta ishlaydigan korxonaga Isroildan rus tilini bilmaydigan, faqat ingliz va o'z ona tilida gapiradigan mutaxassis kelganligi bois fakultetimizdan tarjimon so'lashgan ekan. Tarjimonlik amaliyoti uchun ushbu korxonaga men boradigan bo'ldim.

Uch kun davomida tarjimonlik qildim. Isroillik kishining ismi Nir bo'lib, u sof ingliz tilida so'zlashardi. U menga har bir uskunani qanday ishlatish kerakligini erinmasdan, birma-bir tushuntirar, men esa, o'z navbatida, uning gaplarini o'zbek tiliga o'girardim. Uch kun ko'z ochib yunguncha o'tib ketdi. Oxirgi kuni Nirning aytgan gaplari hech esimdan chiqmaydi. Chunki bu gaplar menga bir umrlik saboq bo'lib qoldi. U shunday degandi:

“Men o'ng tarafim tug'ma falaj bo'lib tug'ilganman. Vaqt o'tgani sayin ota-onam, qolaversa, shifokorlar ko'magi bilan avvaliga o'ng oyog'imni sudrab bo'lsa-da, yuradigan, o'ng qo'limni sal bo'lsa-da, qimirlatadigan bo'libman. Ammo o'ng ko'zim ko'rmaydi va o'ng qulog'im eshitmaydi. Men shunday yashashga ko'nikdim. Mayli, gavdamning bir tarafini ishlamasam. Chap qo'lim bilan chap oyog'im ishlaydi-ku, derdim. Shunda ham Xudodan minnatdor edim. Shukur deyman. Chunki dunyoda yurolmaydigan, ko'rmaydigan, eshitmaydigan, hattoki umuman gapirilmaydigan qanchadan qancha insonlar bor. Menga esa bu ne'matlarning barchasi cheklansa-da, berilgan...”

O'sha kundan boshlab men hayotning va bizga Olloh taolo bergan ne'matlarning qadriga yanada ko'proq yetadigan bo'ldim. Tan-jonim, oyoq-qo'lim sog'omonligiga shukur qildim.

Mahbuba JABBOROVA

Nurobod shahri

## Onalik baxti

Endi yura boshlagan bolakay qoqilib yiqildi. Orqada kelayotgan ona darhol borib uni turg'azdi-da, shundoq qarshisida tiz cho'kib bolaning ko'zlaridagi yoshni arta boshladi. Ayol kiyimi chang bo'lishini o'ylamay, atrofdagi nigohlarga e'tibor ham bermay yerga tiz cho'kib bolasini yupatardi. Undan onalikning mehr-u muhabbati yog'ilib, butun borliqni yoritib turardi go'yo.



Murg'ak qizalog'ini ovozi boricha qarq'ab, qo'lidan sudrab do'kondan olib chiqayotgan boshqa ayolni ko'rganimda, bolasining poyiga tiz cho'kib, ovutayotgan onani esladim. Qizini arzimasa xarxashasi (aftidan biror narsani “obering” deb erkaliq qilgan) uchun yupatish o'rni uchun ham qo'li, ham tili bilan jazolayotgan ayol ham afsuski ona edi.

Otamning ajoyib odati bor edi. Ko'chaga chiqdimi, albatta bizga nimadir olib kelardi. Qovunmi, tarvuzmi, hech bo'lmasa, shirinlik. Goho onajonim javrab qolardi:

— Hadeb yegulik tashiganingiz tashigan, undan ko'ra yig'inaylik, uy-joyimizni yangilaylik, qo'shnilarni ko'ryapsizmi?

— Birovning uyi bilan ishim yo'q, bolalaring iligi to'q, sog'lom, baquvvat bo'lib ulg'ayishsin. Mening boyligim shular, — derdi otam.

Shohona uylarga, mol-dunyo orttirishga qiziqmadi, ro'zg'ordan go'sht-u yog'ni uzmay, yeb ichardan kam qilmay, yaxshi tarbiya berib katta qildi bizni. Muallimlikdan topgan ozgina maoshini xursandchiligimiz uchun sarflab, sovg'a-salomni ham kanda qilmay

ulg'aytirdi. Onam esa erta bahordanoq tomorqadan beri kelmasdi, yilning to'rt faslida ham meva dasturxondan uzilmas, qahraton qishda qaznoqda karsilagan uzumlar osilib turardi. Bularning hammasi biz farzandlarning sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga yetishimiz uchun edi.

Bir oilani bilaman: ota qayerdadir ishlaydi, ona tadbirkor. Bir o'g'il, bir qizi bor. Eshitishimcha, o'g'ilga shaharning qayeridadir hashamatli uy qurib qo'yilgan, endigina o'n uchga kirgan qizaloqning sepi sandiqqa sig'maydi.

Biroq bu ota-ona biror kun uyga barvaqt qaytmaydi. Hech bo'lmasa, bir oyda bir kunni bolalariga bag'ishlamaydi. Bolalar o'z uyida qimmatbaho mebellarga tegib ketishdan, jimjimador gilamlarni kir qilishdan cho'chib, oyoq uchida yuradi, birovnikida yashagandek yashaydi.

— Xo'jayinim topganini bir so'migacha qoldirmay qo'limga tutqazadi, o'zimmikiga qo'shib o'rab-chirmab yig'aman, — deydi ona o'ziga havas bilan qaraganlarga. — To'g'ri, bolalarim kezi kelsa faqat non, choy bilan ham kifoyalanadi. Bugun och qol-sa-da, ertaga bizga rahmat aytadi.

Yaqinda xorijdan kelgan bir tanishim esa:

— Bolam meni tanimadi, ketayotganimda bir yashar edi-da. Kelgunimcha uchga kiribdi, ko'rishmoqchi bo'lsam enasiga yopishib yig'laydi, — deydi kulib.

Aytishicha, xorijdan yaxshi pul topib kelibdi, endi bolasiga uy olib qo'ymoqchi.

“Qizim katta bo'lsa uzatsam, qaynonasidan jabr ko'rmay alohida yashasin”, — deydi u.

Niyatni qarang!

Kim nima desa desin-u murg'ak jonni yozda issiqdan, qishda sovuqdan asrab himoya qilishi lozim bo'lgan ONA tirikchilikni sabab qilib bolasidan olislashga haqqi yo'q! Zero, o'tkinchi dunyoning barcha moddiy boyliklari eng buyuk ne'mat — mehning oldida hech narsa emas.

Nodira MUROD qizi

## Erta qarish alomati

Odam keksayish jarayonini to'g'ri qabul qilsa, ya'ni ruhiyati qarimasa, yosh ulg'ayishi u qadar vahimali emas. Ko'pchilik keksalikni xastaliklar davri deydi. To'g'ri, tashqi ko'rinish, a'zolar va ruhiyatda ayrim o'zgarishlar kechadi. Biroq tibbiyotda insonning biologik yoshi degan tushuncha bor. Xo'sh sizning biologik yoshingiz nechada? Balki yoshingizga nisbatan ruhiyatingiz ulg'ayib bo'lgandir?

Biologik yosh tug'ilganimizdan boshlab hisoblanadigan yoshdan farqlanadi va hammada turlicha bo'ladi. Tadqiqotchilar bu borada ba'zi insonlar yoshiga nisbatan ancha erta qarishi, boshqalari esa keksalikda ham 30—40 yoshdagi kabi ko'rinishini ta'kidlashadi. Bunda gap, avvalo, nasliy moyillikdadir. Ota-onangiz tengdoshlaridan ko'ra yoshroq ko'rinsa, sizda ham bu jarayon kuzatilishi mumkin. Ammo tashqi omillarga sergak bo'lishingiz kerak. Masalan, surunkali charchoq, ruhiy zo'riqish, asabiylik, stress, bir so'z bilan aytganda, hissiyotlarni boshqara

olmaslik keksalikni faollashtirishi hech gap emas. Oramizda shu omillar tufayli 30—40 yoshdayoq qarib qolganlar ham uchraydi.

Asab tizimidagi o'zgarishlardan shikoyat qiluvchilarning aksariyati yoshiga nisbatan 7—9 yosh katta ko'rinadi. Bu “yosh qariyalar” hayotidan ko'p ham mamnun bo'lmaydi, nuqul nimadandir noliydi, ro'zg'or ikir-chikirlariga o'rallashib qoladi. Ulardagi bu behalovatlik organizmni ichidan yemiradi.

Aniqlanishicha, pasport yoshi bilan biologik yoshdagi tafavut asosan o'ttiz

yoshlilar orasida ko'proq kuzatiladi. Gerontologlar buning sababini ulardagi o'zgarishlarda ko'radi. O'ttiz yoshli insonning fikrlashi, o'zini tutishiga diqqat qilib ko'ring-a. Go'yo hamma narsani biladigan, yetarlicha bilimga egadek, ortiqcha izlanish, biror nimani o'rganishi kerak emasdek tuyuladi. Aslida, “shaxs sifatida shakllanib bo'ldim” degan xulosaga kelishning o'zi keksalikka qadam qo'yish bilan barobardir.

Buning yana bir omili bilim olishni istamaslikda ko'rinadi. Bilim deganda faqat ta'limni tushunmaslik kerak. Insonning hayotga qiziqishi, intilish va maqsadlari ham ushbu tushunchani ifodalaydi. Biror narsaga erishish uchun albatta harakat qilish, yangilik axtarish, ya'ni axborot almashish kerak. Miya esa insonning yoshiga qaramay ishlashda

davom etadi. Aksincha bo'lganda, xayol keraksiz narsalar bilan band bo'lib, inson hissiyotlar qurshovida qoladi. Bu miyaga yoqmaydi.

Kavkaz bo'ylab sayohat qilgan nemis adibi Karl May odamlarning yashash tarzi, turmushini o'rganib uzoq umr ko'rishning siri hayotdan zavqlanishda, degan xulosaga kelgan. Demak, yaqinlarga g'amxo'rlik, e'tibor va parvarish bilan ham inson yosh, sog'lom va o'zidan mamnun bo'lib yashashi mumkin. Xulosa qilib aytganda, hech bo'lmaganda yuqoridagilardan to'g'ri xulosa chiqarib, atrofdagi yangiliklardan xabardor bo'lib, voqea-hodisalarni kuzatib, miyangizni oziqlantirib erta qarishning oldini olish o'z qo'lingizda ekanini eslatib qo'ymoqchimiz, xolos.

Kamolola NOSIROVA,  
Namangan shahridagi  
70-maktab o'qituvchisi

Biz dunyoni o'rganmoqdamiz

# Koreyscha mehnat salohiyati

Iqtisod, ishlab chiqarish, tijorat sohalariga uncha tishim o'tmasdi. Uch yilcha oldin "Pedagog minbari" jurnalida ish boshlaganimda O'zbekistondagi sanoat zonalari haqida maqola tayyorlashga to'g'ri keldi. O'rganish jarayonida amin bo'ldimki, bu sohalar muhim, qiziqarli, foydali bo'lib, mamlakat binosini tutib turadigan asosiy ustunlardan biri ekan. Hozir Janubiy Koreyada aynan shu sohada ishlayapman. Bir-ikki oy oldin zavod ishi to'xtab, ishchilarga javob berib yuborilgan edi. Hozir "Arabayt samushil", ya'ni mardikorlar idorasi orqali turli-tuman ishlarga chiqib turibman.

Zavod boshlig'i qaytadan ishga chiqirgan edi, bormadim. Sabablaridan biri — Koreya hayoti bilan yaqinroq tanishish. Qilmagan ishing, ko'rmagan baloying qolmaydi. Dehqonchilik, qurilish, ishlab chiqarish ishlaridan hammollik kabi yumushlarga yollanaveramiz. Idora ish topib bergani, huquqlarimizni himoya qilishni zimmasiga olgani uchun kunlik ish haqimizdan 10 foizdan 20 foizgacha ushlab qoladi. Bu yerda mardikorlar ko'chada turnaqator bo'lib, ishga yollovchi kelganda har tomondan yopirilib ish talashmaydi. Yozda salqin, qishda issiqxonada o'tirib, kofe ichganicha, tekin internetdan foydalanib, telefon titkilab o'tiradi. Kim qayoqqa borishini idora boshlig'i hal qiladi. Ish ma'qul kelmasa, bemalol bosh tortaverasiz. Misol uchun, cho'chqaxonalar bilan bog'liq ishlarga o'zini bilgan musulmonlar bormaydi. Ishga yollovchi tushlik, ishga olib borish va qaytarib olib kelishni bo'yniga oladi.

Gohida qurilish ishlariga chiqib turaman. "Ustaman" deganining shaxsiy yuk mashinasi va o'ziga tegishli uskunalar bor. Bizning ustalar qo'l mehnati bilan soatlab, kunlab bajaradigan ishlarni bir necha o'n daqiqada bitirishadi. Qurilish payti qanday ashyoga ehtiyoj tug'ilsa, uloviga o'tiradi, g'iz etib do'konga chiqib keladi. Uyning egasi uni qayerdan olsam, buni kimning traktorini gaplashib yuklab kelsam, deya bosh qotirib o'tirmaydi. Odatda ustaning o'zi hamma narsani muhayyo qiladi va binoni qurib

bitkazgach, haqini olib boshqa ishga o'tlanadi. Ish og'irrog'-u yordamchi kerak bo'lsa, bizga o'xshagan dastyorlarning son-sanog'i yo'q. Har qanday mahsulotni do'konlardan darrov topasiz. Shahar-shahar izg'ishga hojat yo'q, eng oddiy qishloqlarda ham maishiy hayot uchun zarur bo'lgan hamma narsa sotiladi. Narxlarini internetga bir ko'z yurgutirib bilib olaverasiz. Bu yerda pochta xizmatlari shu qadar faol ishlaydiki, hayron qolasiz. Bozorga, do'konga chiqishga ham hojat yo'q. Internet bozori qaynaydi. Buyurtmangiz o'z vaqtida, ziyon-zahmat ko'rmay ravon yo'llar orqali ostonangizgacha yetib keladi.

## Ha, yo'llar...

Yo'llar mamlakat taraqqiyotida juda katta rol o'ynaydi. Koreyada shahar, qishloqlarni qo'yavering, dala maydonlarida ham asfalt qilinmagan yo'llarni ko'rmadim.

Suv. Koreya doim archadek yam-yashil. Suv quvurlari yetib bormagan biror xonadon, biror dala topa olsangiz, sizga qoyil qolaman. Suv — o'z nomi bilan obi-hayot! Suv aql bilan, insof bilan taqsimlanmasa, insonning holi nima kechadi?! Kasalliklar urchishining asosiy sabablaridan biri ham suv taqchilligi, ifloslangan suvlar, achib-bijib yotgan ariqlar, anhor, hovuzlar emasmi?! Dehqonni qon qiladigan, bor mehnatini yer bilan yakson qiladigan suv taqsimotida yo'l qo'yiladigan e'tiborsizlik, insofsizlik, loqaydliklar emasmi?!

Ishchi va mutaxassislar. Ha, inson



omili eng birlamchidir. Koreyalik kim deb so'rasangiz, men hech ikkilanmasdan, bir og'iz so'z bilan IshChI deb javob bergan bo'lardim. Ishini puxta biladigan, puxta qiladigan odamlar. Ishlash uchun yashayotgan odamlar. Bundan erishadigani ham ko'p, yo'qotadigani ham. Erishadigani — dunyo, yo'qotadigani — oxirat! Koreys xalqi hayotini e'tiqod asosida emas, ish, kasbi-kor ustiga qurgan. Har holda men shunday o'ylayman. Juda ko'plab odamlar hech qaysi dinga ishonmaydi. Biroq qonunlar yaxshi ishlagani, hammayoqda kame-ralar o'rnatilgani uchunmi, yolg'onchilik, o'marish, ko'zbo'yamachilik, xullas, davlatni, millatni orqaga tortadigan holatlar ko'zga tashlanmaydi.

Islom. Musulmonlar asosan chetdan kelgan ishchilardan iborat. Koreys boshliqlar bizning soqol qo'yishimizga, qizlarning ro'mol o'rashiga, namoz o'qishimizga hech qanday qarshilik qilishmaydi. Ish boshqaruvchi bizni ishga olib ketarkan, necha kishi namoz o'qishini so'rab, namoz taqvimiga ko'z tashlab olishni kanda qilmaydi. Shunga qarab, namoz ish vaqtiga to'g'ri kelsa, o'zi kelib bir-bir o'rnimizga ishlab turadi, biz ham navbat

bilan ibodatimizni qilib olamiz. Ista-sa, namoz o'qimaydigan ishchilarni yollashi mumkin. Iymoni bo'lmasa ham, insofi bor! Bunday holat juda ko'p bo'lgan, ilgari ham bir zavodda ishlaganimda o'nlab odam namoz o'qigani turar, koreys ishchilar ularning o'rniga ishlab turardi. Ibadat ham bo'ladi, ish ham. Yana bir zavodda ishlaganimda hammamiz yomon ko'radigan muomala-si qo'pol bir koreys faqat namozga kelganda yumshab qolardi. Karton qog'oz, gilamcha qo'lga ilinib qolsa, ibodat qilasizlar deb bizga keltirib beradigan odati bor edi...

Bu yil Koreyada ishlar anchagina orqaga ketdi. Inqirozga uchrayotgan zavodlar ortib borayapti. Chetdan kelgan ishchilar ko'payib, ish esa kamayib bormoqda. Do'ppi tor kelib qolgan ayrim "insofli" deb taniganimiz koreys oshnalar ishchilarning haqidan ochiq-oydin urib qolishga, ishlatib-ishlatib haqini bermaslikka boshlamoqda. Odamlar orasida ish haqini ololmay yurgan musofirlar juda ko'p.

Xulosa. Koreyaliklardan o'rganadigan narsalarimiz ko'p. Men bir qismini qalamga oldim, xolos.

G'olib BAHROM

## Xo'ja Nasriddinni taniysizmi?

Har bir xalqning hajv ustalari va yumorga boy qahramonlari bor. Rossiyada komik obraz — Shoh masxaraboz, arab xalqlarida — Juxo, qoraqalpoqlarda — Umurboy, qozoqlarda — Aldarko'sa, o'zbeklarda esa Xo'ja Nasriddin obrazini keng tarqalgan. Xo'ja Nasriddin ismini eshitganda beixtiyor yuzimizga tabassum yuguradi.

Tarixdan ma'lumki, turli kurashlar natijasida hokimiyatning qo'ldan qo'lga o'tishi qi-yinchilik va mashaqqatning xalq zimmasiga tushishi, bu esa noroziliklar-u qo'zg'olonlarga sabab bo'lgan. Mana shunday og'ir damda mazlum xalq o'z xohish va istaklarini ochiqdan ochiq emas, balki hajv orqali, ya'ni majoziy obrazlar bilan ifodalagan. Xalq o'z noroziligida

zolimlarning kamchiligini bo'rttirib, kulgi orqali, ya'ni ularni mazax qilish orqali o'zlarini tinchlantirib, bir-biriga ruhan dalda bergan. Ana shunday paytlarda biz yuqorida sanagan qahramonlar maydonga chiqqan.

Xalqimiz orasida ham xasis boylar ustidan kulib, ularni chuv tushirgan, beva-bechoralarga yordam bergan obraz hamon xalq og'zaki ijodida ya-

shamoqda. Bu obraz sekin-as-talik bilan adabiyotga, sahna-ga, ekranga ko'cha boshladi. Adabiyotda Xo'ja Nasriddin obraziga ko'pgina yozuvchilar murojaat qilgan. Gohida uning ismi o'zgarsa-da, mohiyatan Xo'ja Nasriddinligicha qolgan. Teatr san'atida esa bu obrazga bag'ishlangan dramalar soni talaygina. "Nasriddinning bolaligi", "Xo'ja Nasriddin Buxoroda", "Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari", "Xo'ja Nasriddinning 12 qabri", "Afandining 5 xotini" va boshqa ko'plab asarlar shular jumlasidan.

Kino san'atida ham ushbu obrazga ko'pgina rejissyor va prodyuserlar murojaat etgan.

"Xo'ja Nasriddinning kirdikorlari", "Xo'ja Nasriddin Qo'qonda" nomli bir qancha kinofilmlar keng ommaga taqdim etilgan.

Musiqqa san'atida mazkur obraz kompozitor va bastakorlar diqqatidan chetda qolmagan. Kompozitorlar orasida Xo'ja Nasriddin obraziga birinchilardan bo'lib B.Aravov qo'lgan. Kompozitorning "Xo'ja Nasriddin Buxoroda" nomli musiqali komediyasi mashhur. Sulaymon Yudakovning "Xo'ja Nasriddin" baleti, Y.Solihovning "Quvnoq gunohkor" operettasi, Avaz Mansurovning yosh tomoshabinlar teatri uchun "Xo'ja Nasriddin" postanovkasi, Mustafo Bafoyevning "Xo'ja



Nasriddin va Karmensita Buxoroda" konsert baleti singari asarlar yaratildi.

Hilola QOBILOVA,  
O'zbekiston davlat  
konservatoriyasi talabasi

# Qaysi ta'lim yo'nalishini tanladingiz?

Gazetamizga abituriyentlar respublika oliy ta'lim muassasalarida 2019-2020-o'quv yilida tashkil etilayotgan yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot berishimizni so'rab murojaat qilgan. Quyida yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar ro'yxati taqdim etilmoqda.

## BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI

### O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

- ✓ Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta'minoti (tillar bo'yicha)
- ✓ Davlat va nodavlat tuzilmalarida axborot xizmati
- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

### O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

- ✓ Jurnalistika: harbiy jurnalistika

### O'zbekiston Milliy universiteti

- ✓ Antropologiya va etnologiya
- ✓ Tarix va ekskursiya-o'lkashunoslik ishi
- ✓ Tabiiy va fiziologik faol birikmalar kimyosi

### Toshkent davlat texnika universiteti

- ✓ Sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar boshqaruvi
- ✓ Sovutish, kriogen texnikasi va mo'tadillash tizimlari mashinalari hamda agregatlari
- ✓ Neft va gaz sanoati mashina va jihozlari
- ✓ Uchuvchisiz aviatsiya komplekslarining texnik va texnologik ekspluatatsiyasi
- ✓ Payvandlash texnologiyasi va jihozlari
- ✓ Amaliy koinot texnologiyalari
- ✓ Aviasozlik
- ✓ Oziq-ovqat sanoati mashina va jihozlari

### Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

- ✓ Raqamli iqtisodiyot
- ✓ Reklama ishi

### Toshkent moliya instituti

- ✓ Budjet hisobi va nazorati
- ✓ Bank hisobi va audit
- ✓ Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari
- ✓ Moliyaviy texnologiyalar (sohalar bo'yicha)

### Toshkent kimyo-texnologiya instituti

- ✓ Vinochilik texnologiyasi
- ✓ Bijg'ish mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar texnologiyasi
- ✓ Oziq-ovqat sanoati mashina va jihozlari
- ✓ Funktsional ovqatlanish va bolalar mahsulotlari texnologiyasi
- ✓ Konservash texnologiyasi
- ✓ Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi
- ✓ Plastmassani qayta ishlash texnologiyasi
- ✓ Yog'ochni qayta ishlash sanoati mashinalari va jihozlari
- ✓ Yog'lar, efir moylari va parfumeriya-kosmetika mahsulotlari texnologiyasi

### Toshkent davlat pedagogika universiteti

- ✓ Maktab menejmenti
- ✓ Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi

### Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

- ✓ Noshirlik ishi

### Buxoro davlat universiteti

- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

### Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

- ✓ Yig'ma temir-beton va beton konstruksiyalar va buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasi
- ✓ Devorbop va pardozbop qurilish materiallari texnologiyasi
- ✓ Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi

### Jizzax politexnika instituti

- ✓ Yig'ma temir-beton va beton konstruksiyalar va buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasi
- ✓ Devorbop va pardozbop qurilish materiallari texnologiyasi

### Qoraqalpoq davlat universiteti

- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

### Samarqand davlat chet tillar instituti

- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

### Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

- ✓ Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi

### Farg'ona davlat universiteti

- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

### Farg'ona politexnika instituti

- ✓ Yig'ma temir-beton va beton konstruksiyalar va buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasi
- ✓ Devorbop va pardozbop qurilish materiallari texnologiyasi

### Urganch davlat universiteti

- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

### Navoiy davlat pedagogika instituti

- ✓ Maktab menejmenti

### Nukus davlat pedagogika instituti

- ✓ Maktab menejmenti

### Jizzax davlat pedagogika instituti

- ✓ Maktab menejmenti

### Qo'qon davlat pedagogika instituti

- ✓ Maktab menejmenti

### Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

- ✓ Maktab menejmenti

### O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

- ✓ San'at sohasida prodyuserlik

### Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti

- ✓ Elektr transporti (turlari bo'yicha)

### Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti

- ✓ Avtomobil servisi

### Navoiy davlat konchilik instituti

- ✓ Foydali qazilmalarni boyitish (qazilma turlari bo'yicha)

### Toshkent arxitektura-qurilish instituti

- ✓ Yig'ma temir-beton va beton konstruksiyalar va buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasi
- ✓ Devorbop va pardozbop qurilish materiallari texnologiyasi
- ✓ Urbanistika, shaharsozlikni rejalashtirish
- ✓ Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi

### Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti

- ✓ Urbanistika, shaharsozlikni rejalashtirish
- ✓ Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi

### "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti

- ✓ Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)

## MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI BO'YICHA

### O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

- ✓ Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta'minoti (tillar bo'yicha)
- ✓ Sinxron tarjima (tillar bo'yicha)

### O'zbekiston Milliy universiteti

- ✓ Kichik o'lchamli holatlar va nanotuzilmali materiallar fizikasi
- ✓ Yarimo'tkazgichlar fizikasi
- ✓ Yangi materiallarning mikroskopik xususiyatlarini hisoblash va kompyuterda modellashtirish

- ✓ Yoshlar bilan ishlashni tashkil etish

- ✓ Nodir metallar kimyosi
- ✓ Radiokimyo
- ✓ Toponomika
- ✓ Iqlim o'zgarishi va iqlimiy xatarlarni baholash
- ✓ Geourbanistika

### Toshkent davlat texnika universiteti

- ✓ Rentgen texnikasi va texnologiyasi
- ✓ Amaliy kosmik texnologiyalar

### Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

- ✓ Brendni boshqarish
- ✓ Strategik tahlil va tashxislash
- ✓ Iqtisodiy xavfsizlik
- ✓ Mintaqaviy iqtisodiyot

### Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

- ✓ Sinxron tarjima (Sharq tillari)

### Toshkent kimyo-texnologiya instituti

- ✓ Elektrokimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasi

### Toshkent davlat pedagogika universiteti

- ✓ Korreksion pedagogika
- ✓ Inkluziv ta'lim

### Samarqand davlat chet tillar instituti

- ✓ Sinxron tarjima (tillar bo'yicha)

### Urganch davlat universiteti

- ✓ Kompyuter lingvistikasi

### Samarqand veterinariya meditsinasi instituti

- ✓ Favqulodda vaziyatlarda veterinariya nazorati va jamoat sog'lig'ini saqlash

### Toshkent tibbiyot akademiyasi

- ✓ Nutritsiologiya
- ✓ Allergologiya va klinik immunologiya

### Toshkent tibbiyot pediatriya instituti

- ✓ Bolalar gastroenterologiyasi
- ✓ Bolalar pulmonologiyasi

### Milliy rassomlik va dizayn instituti

- ✓ Amaliy grafika
- ✓ Kompyuter grafikasi va badiiy surat

### Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

- ✓ Tibbiyotda kompyuter tizimlari
- ✓ Intellektual axborot-kommunikatsiya tizimlari

### Toshkent davlat yuridik universiteti

- ✓ Tibbiyot huquqi
- ✓ Qurilish huquqi
- ✓ Intellektual mulk huquqi

### Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti

- ✓ Elektr poyezdlar
- ✓ Tezyurar elektropoyezdlar
- ✓ Intellektual transport tizimlari
- ✓ Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'yicha)

### Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti

- ✓ Intellektual transport tizimlari

### Toshkent arxitektura-qurilish instituti

- ✓ Beton va temir-beton texnologiyalari
- ✓ Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish

### "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti

- ✓ Turizm iqtisodiyoti va boshqaruvi

### O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

- ✓ Qiyosiy dinshunoslik

O'qituvchi xotiralari

# Jumboq

## yo'xud talabalik yillaridan bir naql

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Keyin bilsak, o'qituvchilar tomonidan brigadimning iltimosiga ko'ra ko'sak chuvish agregatida ishlayotganlarga yordamga yuborilgan Mamatqul tun yarmida o't oldirilgan traktorni minib qochgan. Bizga o'zini ko'rsatish uchun shiyponga kelayotganida, tezligi oshgan texnikani boshqarolmay qolgan...

Guruhimizga bir muddat keksalik yuki bosib, esar bo'lib qolgan pedagogika muallimi rahbarlik qilgan kunlari anchagina tinchib qolgandik. Domla shu darajada parishonxotir ediki, birimizni hozirgina to'xtatib, ishimizni so'rab olgan bo'lsa-da, arzimagan muddatdan so'ng tag'in:

— Kollangdan, kollangdan (kallangdan demoqchi), sening isming nima edi? — deb so'rayverardi.

Domlaning esarligidan foydalanib, har kuni kimmidir shahar aylanib kelishga qochirib yuborib, ro'yxat o'qilib, bor-yo'q qilingan payti birinchi bo'lib nomi chiqqan birimiz yana "men" deb saf oldiga chiqar, domla esa:

— Bormisan, mayli, safga qo'shil, lokin paxtani yaxshi ter, kollangdan, — der, baribir muloqot oxirida: darvoqe, isming nima edi, kollangdan? — deb so'rashni kanda qilmasdi.

Domlaning tag'in bir g'alati odati bor edi. Ozgina shudring tushsa ham nam ko'tarilmasdan bizni egatga tushirmasdi. "Kollangdanlar, menga sizlarning sog'lig'ingiz kerak, ustlaringiz nam bo'lsa, shamollab qolasizlar, biroz dam olinglar", — derdi.

Kuyunchak domlaning odatinu yaxshi bilganimizdan har kuni qaysidir birimiz ertaroq turib, dalaning ma'lum qismiga suv sepib qo'yar, keyin terimga chiqish oldidan u kishini shu yerga boshlab kiraverardik. Ammo tez orada dekanatdagi domlaning nihoyatda ko'ngilchanligi bois terim sur'ati tushib ketganligi uchun uning o'rimga yangi o'qituvchini guruhimizga rahbar qilib yubordi. Zerikarli va rutubatlil kunlarning birida burnining uchigacha qorakuya surtib olgan choyxonachimiz — xorazmlik Murombek (oxirati obod bo'lsin) kechki payt bizni xushxabar bilan qarshiladi:

— Guruhimizga yangi malim galdi, o'ziyam faylasuf ekan.

Tungi mashmashlarni kutib kelganimiz uchun sen va men sevinchdan yayrab ketdik: "Balki endi bir muddat jonimiz orom topar". Har holda faylasuf domla kishi ruhini yaxshiroq tushunishiga, u rahbarlik qilgan kunlari ozgina bo'lsa-da dam olib qolishga umid bog'lagandik. Qayerda! Dahmaza ustiga dahmaza qo'shildi. Faylasuf domla kam paxta terganimiz uchun tengdoshlarimiz orasida zir qaqshatib izza qilar, paxtakorlar mehnatini misol keltirgancha, uzundan uzoq nutq irod qilib asabga tegishni kanda etmasdi:

— Bizlar olim emas, ana ular o'z ishining chinakam professori! Cho'lining jaziramasu, garselliga dosh berib shunday hosil yetishtirgan kishilarni boshqa qanday atash mumkin? Ulardan ibrat olishimiz kerak...

Ehtimol, o'shanda faylasuf domlamiz dehqonlarning yer bilan tillasha olishini nazarda tutgandir, ammo...

3

— Tur! — yelkandan turtayotgan qo'l, yuzimga urilayotgan nafas taftidan uyg'onib ketdim.

Bu sen eding.

— Ha, nima deysan, hali tun yarim bo'lmadi, tinchgina uxla, — g'ingshiyim yoqin qiramadan. Keyin issiq o'rminni sovitgim kelmay, belimni zirqirayotgan og'riq, badanni chimdilayotgan sovuq zo'ridan boshimni qalin ko'rpaga mahkam burkab olaman.

— Tur-da endi, oshna, ertaga yana shtabda ko'karmoqchimisani?! Hademay tong otadi,

kechagi paxtani tashib olaylik, — deysan o'jarlik bilan ustimdagi ko'rpani tortib.

Bazo'r ko'zlarimni musht bilan ishqalab, kiprigimda saf tortgan lak-lak uyqu lashkarini haydayman. Turishdan o'zga chora yo'q. Esladim. Kecha sen bilan qoloklikdan chiqish niyatida ayrim guruhdoshlarimiz uchun anchadan buyon urfga aylangan paxta o'g'irligiga chiqishga ahd qilgan, ilk o'ljani qayerdan o'marishini ham chamalab olgandik.

To'g'ri, rejamiz ancha qaltis bo'lib, ko'zlagan marmaz yoshi yetmishdan oshgan jahldor arab brigadimning qopag'on itlari aylanib yuradigan chayla yonginasidagi o'qariqqa kildir terib, to'kib qo'rgan xiyaliga paxta edi. Hammasi silliq kechayotgandi. Tong oqarib qolgan bo'lsa-da, bizni na chayla sohibi, na uning qopag'on itlari sezgandi. Bir payt kutilmaganda yer bag'irlab, baqirib qolding:

— Yot, Nabi, joningdan umiding bo'lsa yot, otib tashlaydi.

Beixtiyor sening harakatlaringni takrorlar ekanman, chayla tomon zingil tashladim. Tashladim-u, ko'z o'ngim qorong'lashib ketdi. Darg'azab brigadir qo'shog'iz milting'i milini biz tomon chamalab turar, bosh-oyoq qora libos kiygan ayol uning qo'llarini ushlagancha nimalardir deya yotgandi. Hovurdan tushgan brigadir chol milting'ining milini yerga qarattida, biz tomon qo'l sermah chaqirdi:

— Hoy, buyoqqa kelinglar. Qilg'iliqni qilib qo'yib, nega bez bo'lib turibsanlar?!

Bizdan boshqa bo'lganda fursatni boy bermay, shataloq otib qochishi tayin edi. Ammo ikkalamiz ham negadir ilon avragan chumchuqdek boshimizni solintirib, imillagancha chol tomon yo'l oldik.

— Kiringlar chaylaga. Kelinim jonlaring ora kirmaganda, har ikkalangizni itdek otib tashlagan bo'lardim, — dedi chol ichkariga kiritib, jonimizni sug'urib oladigan alpolda.

Jismi jonimiz qaqsab chaylaga kiramiz. — Etiklaringni yechib, ko'rpachaga o'tinglar.

Odatda jahli burnining uchida turadigan brigadir chol ko'rsatayotgan mulozamatdan hayron qoldik. Burnining uchigacha o'ralgan ro'moli orasidan ko'rinib turgan bir juft ko'zi qanchalik ma'yus bo'lmasin, navqironligidan darak berib turgan ayol bir zunda dasturxon yozib, ustini qand-qurs, qaymoq, sariyog', qovurilgan go'sht bilan to'l'dirdi.

— Qani, tortinmay olib o'tiringlar-chi, — dasturxonga tortilgan noz-ne'matdan tanovul etishga chorlaydi mezbun va negadir chuqur "uf" tortib tashqariga ovozi beradi: — Kelin, bizga choy damlab ber-da, Yodgorbekni o'qishga kuzatib yubor. Sovxoq markaziga yetib borgunicha maktab boshlanib qoladi.

Yalt etib bir xonadon sohibiga, bir chaylaga kirib-chiqib turgan ayolga zingil tashladim: "Nega Yodgorbek, kelinining boshdan-oyoq azadorlarga xos libos kiyib yurishida bir sir bor, shekilli. Darvoqe, cholning kampiri qayerda ekan?!"

— Kampir yo'q, — dedi xonadon sohibi fikrimni uqqandek, — Xudo rahmatiga olgur yakka-yu yolg'iz farzandimizning dog'iga dosh berolmay, o'n yil burun bandalilikni bajo keltirdi. Bahor, yoz va kuz oylari shu chaylada, sovuq tushgandan keyin esa markazdagi hovlimizda faqat men, shugina kelinim va o'n yashar nabiram yashaymiz.

Chol kelini kiritib bergan choyni shopirib, uzatadi. Ikkalamiz esa "uyat — o'lminan qattiq" qabilida ko'zimiz bilan yer chizimiz. "Biz bu yerlarga nima niyatda kelgandig-u, bulardan qanday ardoq ko'ryapmiz?!"

— Buncha lattachaynar bo'lmasanglar. Qani, olib o'tiringlar-chi, — deydi chol oldimizga goh kosa to'la qaymoqni, goh lali to'la qovurmani surib qo'yarkan. — Hammasi o'z xonadonimizdan chiqqan, baraka topgur kelining qo'li gul.

Keyin u har ikkalamizdan qayerlik ekani-mizni, ota-onalarimiz kim bo'lib ishlashini, oilada nechanchi farzandligimizni surishtirishga tushdi. Men esa tezroq mijg'ov cholning o'z turish-turmushidan ochgan gurungini davom ettirishini kutib betoqatlanar va nihoyat niyatim vojib bo'lgach, ancha yengil tortgandim.

— Biz ham bir darbadar insonmiz, bolalarim, asli kelib chiqishimiz o'zimizning Kosonning Arabxonasidan. Taqdirida bor ekan — chorak asr Surxondaryoning Gagarinida yashadik. O'sha yo'qlarda ham brigadir bo'lib ishlardim. "Qirq sentmerchilik harakati" ilg'orlaridan bo'lganim uchun eng oliy mukofotlarga sazovor bo'lganman. O'sha Maskopidagi mashhur ko'rgazmaga necha bor o'zim yetishtirgan mahsulotlarni olib borganman. Sizlar meni qariyb, belim bukchayganda ko'rib turibsanlar. Senlarning yushingda yerga ursa, ko'kka sapchiydigan yigit edim. Hozir "kampirni bir qaltum suv bilan yutib yuborgudek davrida, naq yuragimdan urib, Buxorodan qopga solib, olib qochganman", desam ishonasizlarmi? Shunaq o'adam edi Nurmuhammad bobolaring. Hali-beri keksalikka yo'ri berish niyatimiz yo'q edi. Onasi ikkimiz yer-u ko'kka inonmagan Bahodirimiz kutilmaganda falokatga uchragan kampirni olib ketdi. Mening esa tizzamni bukdik. Hammasiga o'zim aybdorman. Bo'lmasa, yozda ham shamollamasin deb qo'lini sovuq suvga urdirmaydigan Bahodirningan tagiga hali o'zini bosib ulgurmasidan baloyi azim "Jiguli"ni olib berardim. Xullas, o'g'li tug'ilganini tuman markazida yo'rulari bilan "yuvgan" juvonmard. Sarxushlikda moshinani boshqarolmay, zovurga tashlab ketibdi. Keyin kampir o'tdi. Har qadami, har bir dov-daraxti ularni eslataverigandan keyin yashab turgan joylarimdan ham ko'nglim sovidi. Ayniqsa, ayriqliq ko'nikib ketish kelimga oson bo'lmadi.

"Hali yoshsan, gul umringni yolg'iz bolaga xor qilma. Nabiranni o'zim o'stirib olaman, baxtingni top", desam ham unamadi boyaqish. "Shu bechora erini eslatuvchi manzildan boshqa yerga ko'chsa, ko'ngli tinchib ketar", degan ilinjda Qarshi cho'li o'zlashtirilayotgani to'g'risidagi xabarini eshitishim bilan umr bo'yi yiqqan bor dov-u dastgohimni arzimagan narxda pullab, bu yerlarga bosh olib keldim. Hali sizlar olmoqchi (biz tabiatini bilmasdan hurkib yurgan kishining tanlagan iborasini qara: "o'g'irlamoqchi" emas, "olmoqchi") bo'lgan paxtani puliga darqolgan (muhtoj bo'lgani — sheva) uchun emas, kun bo'yi chayla atrofiga ivirib, zerikkanidan kelinim tergan...

Baxtiyor! O'sha dam seni bildimdim, ammo men o'z-o'zimdanda, uquvsizligimdan nafratlanib ketgandim. Turmushning to'rt mushti qaddini bukkan alomat choga orqavoratdan "jahldor" deb ta'na qilib yurganimdan uyalgandim. Bilsang, shu payt cholning qistovi bilan tanovul etganlarim bo'g'zimda qator bo'lgan, "bir kun tuz togtan yeringga qirg'yil salom ber" maqoliga amal qilib, o'la-o'lguncha chol va uning shu'rpehona kelinining duoyi jonini qilishga o'zinni ruhan chog'lashga urinayotgandim.

Ey do'st, chayladan chiqqach, brigadir chol uzoq xayrlashuv so'ngida aytgan so'zlar esingdami:

— Harakat qilinglar, bolalarim, harakatda — barakat. Hali har qanday qiyinchilikni yengib o'tishga qodir yigitlar bo'lib yetishasizlar. Yaratgan Egam baxtingizni bersin!..

— Ota, — dedi biz yelkamizni qisib, tezroq chayladan uzqlashish niyatida ketayotgan chog'imiz, o'g'lini maktabga kuzatib qaytgan kelin. — Yigitlarga aytgim, paxtadan etaklariga siqqanicha olib ketishsin. Mayli, har kuni olaverishsin. Men uni yirtig'imga yamoq qilardim.

Ayt-chi, shuncha gap-so'zdan so'ng, agar qaysar chol milting'ini ko'ksimizga

tirab turganida ham o'sha zormanda paxtaga qo'l urolarmidik? Seni bildimdim, men bunday qilolmasdim. "O'zi nomardligimiz uchun jazolanish evaziga shuncha ko'rgan izzatimizning so'roviga nima bilan javob beraman, hali dalada brigadir cholning ko'ziga qanday qarayman?" degan o'ylarning zalvorli yukini ko'tarolmay yerparchin bo'lib borayotgandim...

4

Tushlikkacha qo'lim ishga bormadi. Endi men hamma narsaga befarq bo'lib qolgan, kam paxta terganim uchun mijg'ov faylasuf domlardan gap eshitishim mumkinligi ham xayolimdan faromush bo'lgan, fikr-u yodimni inson uchun azal va abad oraliq bir qadam ekanligi haqidagi o'yilar qamrab olgandi. Tabelchi o'lchovga chaqirganida hammadan keyin istamaygina bir siqim paxta solingan etakni ko'tarib chiqdim.

— Ha, yalqov, tag'in uxlab-uxlab kelyapsami?! Bor, sherkirlariga qo'shil, senlarga tushlik harom.

Domlaning dashnomlari qulog'imga kirmadi. Paxtadan bo'shagan etakni yelkamga tashlab, dalaga yo'l oldim. Qulog'im ostida brigadir cholning gaplari jaranglab ketgandek bo'ldi:

— Harakat qilinglar, bolalarim, harakatda — barakat!..

Vujudimni qoplab olgan o'jarlik bor alamimni chanoqdagi paxtalardan olishga, belim og'risa-da, barmoqlarim tolsa-da, teraverishga, teraverishga undardi.

Bir qarashda tushlikdan mahrum etilganlar orasida sen ham borlingini ilg'ab oldim.

Shu payt brigada boshlig'ining: — Domla, shu ikki yigitga ruxsat berang, bugundan ularga har kuni mening hisobimdan ellik kilodan paxta qo'shib qo'yavering, — degani;

Domlaning: — Nimaning hisobiga, — deya mijg'ovlangani;

Brigadir cholning: — Huv anavi yerdagi xirmonni sizlamikiga qo'shib toptiraman. Ikki tonnacha chiqadi, shuning hisobiga, — deb cho'rt kesgani;

Keyin domlaning nomlarimizni tutib, tushlikka ruxsat bergani qulog'imga chalindi.

— Nabi, bu yoqqa kel, — deb chaqirdi izimdan ko'kdalalik kuydi-pishdi jo'ram Ismoil. — Senga ovqat olib qo'ydim.

Nishonlik Otamurod qo'lindan tutib qolishga urindi. Ammo men orqaga qaytmadim, qaytolmadim. Ochiq'i, qaytishni sira hazm etolmas, tizzamga engan qaltiroqni arang bostirib, tezroq dalaga singib ketishni, singillar ketishni istardim. Chunki shu tob orqaga burilsam, kiprigimda qalqigan yoshni saqlomlasimgimni, bo'g'zimni yirtay deb turgan hayyiriqni bostirolmay, o'kirib yig'lab yuborishim mumkinligini ich-ichimdan his etardim...

5

Baxtiyor! O'tmish xotiralarining eng nozik nuqtalarini eslatib yuborgan bo'l'sam, kechir. Endi hisoblab ko'rsam, o'sha voqeaning sodir bo'lganiga ham qirg'yildan oshibdi. Qirg'yildirki keksa brigadir chol va kelinining bizga ko'rsatgan mulozamat, oldimizga yo'yan dasturxonni ko'z o'ngimdan ketmaydi. Elimizning oddiy, biroq do'lvor odamlari tantiliga tasannolar o'qiyman. Har gal shu voqeani eslaganimda esa dilimni bir og'riqliq savol, sirini fosh etmagan jumboq titkilyaveradi, titkilyaveradi. Faylasuf domla:

— Bizlar olim emas, ana ular o'z sohasining professori, — deb nutq irod etganida nimani nazarda tutgan ekan?

Olimlikimni yoki odamiylikni? Bildimdim, bilolmadim. Lekin negadir oradan yillar o'tib, sochga qo'ngan qirov quyulashavergani sayin o'sha sen bilan, men bilan "kollangdan" domlaning esarligiga ham, erinmasdan birma-bir ro'yxat o'qigan chog'ida o'zga bironing o'miga "men" deb saf oldiga chiqqanimizni ajrata olmaganiga ham shubham ortib borayotgani rost. Tag'in kim bilsin!..

Abdunabi ABDIYEV,  
Mishkor tumanidagi  
22-maktab direktori

## «OLTIN ASTEROID» EKSPEDITSIYASI

NASA 2022-yili oltin asteroid nomini olgan Psixeya kosmik obyektiga maxsus ekspeditsiya jo'natishni rejalashtirmoqda. Bu haqida [naked-science.ru](http://naked-science.ru) sayti xabar tarqatdi.

“Qimmatbaho asteroid” yuzasida taxminan 20 oy mobaynida tadqiqot ishlari olib borilishi rejalashtirilmoqda. Osmon jisimidagi tog'-kon jinslari ultraspektral tomograf, gamma-nurli va neytron spektrometr hamda magnetometr kabi maxsus qurilmalar yordamida tadqiq qilinadi.

Boshqa osmon jismlari bilan to'qnashuv natijasida Psixeyaning massasi kamayganiga qaramay, tarkibida katta miqdorda platina, temir, nikel va oltin mavjud. Hisob-kitoblarga ko'ra, asteroidning umumiy qiymati 700 kvintillion dollarga teng.

NASA ekspeditsiyani ilmiy maqsadlarni ko'zlagan holda, Quyosh tizimini o'rganish uchun jo'natilgan. Biroq bir qator kompaniyalar asteroiddan qimmatbaho metallarni olib kelish sanoat istiqboliga xizmat qilishini ta'kidlaymoqda. Bu esa, iqtisodiyotdagi yangi yo'nalish — koinot bozorini yuzaga keltirsa, ajab emas.



## YUZ MILLION YILLIK IZLAR

Sinxua axborot agentligining ma'lum qilishicha, Xitoyning sharqiy Szyansu provinsiyasida taxminan to'rtta dinozavrning toshga aylangan izlari topilgan. Bu izlar yoshi 100 million yilga teng.

Qayd etilishicha, aniqlangan dinozavr izlari zaurpodlar — Yer yuzida qachonlardir yashagan to'rt oyoqli eng yirik o'txo'r dinozavrlar guruhiga tegishli. Zaurpodlarning 130 ga yaqin turi mavjud bo'lgan va ular 13 oilaga bo'lingan. Eng taniqli vakillari diplodok, braxiozavr, apatozavrlardir. Ularning asosiy o'ziga xosligi uzun bo'yni, shunga mos dumi, gavdasiga nisbatan juda kichik boshi va keng, ustunsimon oyoqlaridir. Mutaxassislarning taxminicha, bu topilma hozirgi Xitoy hududida qanday dinozavrlar yashagani va ularning evolyutsiyasini o'rganishga yordam beradi.



Tadqiqotda Xitoyning geofan universiteti, AQShning Kolorado shtati universiteti va boshqa qator oliy ta'lim muassasalari paleontologlari ishtirok etgan. Hozir olimlar kam-yob topilma himoyasini ta'minlash masalasida mahalliy hukumat bilan hamkorlik qilmoqda.

Dilshoda MANAYEVA  
tayyorladi.

**Xolmaxmatov Azim Xazratkulovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha “O'zbekistonda yoshlarga old davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari va texnologiyalari” mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 227-16-65, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**Saidov Sanjar Shavkatovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha “Ijtimoiy kapital rivojida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini ta'minlash tendensiyalari” mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 227-16-65, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**Nasirova Shaira Narmuradovnaning 02.00.16 — Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari ixtisosligi bo'yicha “Texnologik jarayonlarni kompyuter algoritmlash bilan boyitish fabrikalaridagi flotatsiya apparatlarini takomillashtirish” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 13-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.  
Tel/faks: (71) 244-79-20; e-mail: tkti@mail.uz

**Toshxo'jayev Alisher Ulxo'jayevichning 05.09.02 — Asoslar, poydevorlar va yero'ti inshootlari. Ko'priklar va transport tonnellari. Yo'llar, metropolitenlar ixtisosligi bo'yicha “Namlangan lessli zaminlar faol qatlam chuqurligining zilzila ta'sirida o'zgarishi” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti va Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.09.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 20-uy.  
Tel/faks: (71) 232-14-39; e-mail: tadi\_info@edu.uz

**Kadirov Baxodir Maxamadjonovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Suv ta'minoti uchun ko'pfunksiyali ingibitorlar sintezi va texnologiyasi” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 13-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.  
Tel/faks: (71) 244-79-20; e-mail: tkti@mail.uz

**Xushvaqov Tuychi Suvanovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo'yicha “Agrofizika fani mazmuni va o'qitishni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish (qishloq xo'jaligi oliy ta'lim muassasalari misolida)” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 227-16-65, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**Aripdjanov Oybek Yusupdjanovichning 02.00.08 — Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Kompozitsion sorbentlar bilan tabiiy hamda ikkilamchi gazlarni oltingugurt birikmalaridan tozalash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.  
Tel/faks: (71) 244-79-20; e-mail: tkti@mail.uz

**Babaxanova Zebo Abdullayevnaning 02.00.15 — Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Kamyob yer elementlari, grafit va talkli xomashyolar asosida olovbardosh materiallar va kompozitlar ishlab chiqarishning texnologik asoslari” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.  
Tel/faks: (71) 244-79-20; e-mail: tkti@mail.uz

O'zDJTU qoshidagi akademik litsey tomonidan 2016-yili Ilxomov Jasur Zuxriddin o'g'li nomiga berilgan L №283527 raqamli diplom yo'qolganligi bois

**BEKOR QILINADI.**

2014-yilda Toshkent mehmonxona xo'jaligi kasb-hunar kolleji tomonidan Xolmatova Nozimaxon Odiljon qizi nomiga berilgan K № 3545064 raqamli diplom yo'qolganligi sababli

**BEKOR QILINADI.**

# Markazda Maroqli ta'til

Olmazor tuman "Barkamol avlod" bolalar markazida yozgi ta'til davrida bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sog'lomlashtirish maydonchasi ish boshladi. Sog'lomlashtirish maydonchasida 5 ta muhim tashabbus bo'yicha musiqa, teatr san'ati, kompyuter savodxonligi, kitobxonlik va sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yildi.



Garchi ta'til bo'lsa-da, o'zida 600 dan ziyod o'quvchini jamlagan to'garaklarda bolalar aviomodel, tasviriy san'at, kulloqlik, badiiy to'qish, munchoqli bezak, tikish-bichish, raqs, pazandalik kabi 20 dan ortiq hunar sirlarini qunt bilan o'rganmoqda.

— Markazimizda o'g'il-qizlarga kelgusi hayotida asqotadigan hunarlarni chuqur o'rga-



yaratilgan. Bolalar sport to'garaklarida jismonan chiniqayotgan bo'lsa, shaxmat, shashka o'ynab aqlini charxlamogda. Bugungi faoliyatimizni kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois kompyuter bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, turli dasturlar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida tashkil etilgan "Kompyuter savodxonligi" to'garagi bolalar bilan gavjum. "Kitobim — oftobim", "Eng faol kitobxon" tanlovlari orqali bolalarning mutolaaga, kitobxonlikka qiziqishini oshirmoqdamiz. Tikish-bichish, to'qish, liboslar dizayni, munchoqli bezak to'garaklarida qizlar chevarlik sirlarini o'rganmoqda. Markazimizdagi to'garaklarda 30 dan ortiq pedagog yoshlarga bilim va tarbiya bermoqda.

tishga yo'naltirilgan to'garaklar tashkil etganmiz. Bu ishlarimiz Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusga hamohangligi bilan ahamiyatlidir. Iqtidorli bolalarning iste'dodini yuzaga chiqaradigan tasviriy san'at, musiqa yo'nalishidagi to'garaklarda bolalarga o'z mahoratini namoyish etishi uchun ajoyib imkoniyatlar

Asolat AHMADQULOVA

Burhon RIZOQULOV  
olgan suratlar.



# Ma'rifat

**TA'SIS ETUVCHILAR:**

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150. V-3580. Tiraji 12087.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**

qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotiyyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

**MANZILIMIZ:**

100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi muharrir:** Sardor Mustafoyev.  
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 02.00 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6